



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



№16
2 июнь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 16-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
14-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
16-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-14**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
16-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-14**

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 16-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрел 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 58б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барноҳон Одилжонова (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазилидин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазилидин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Islam Ametbaevich Karimov SXEMALAR VA QURILISH CHIZMALARINI O'QISH VA BAJARISHNI O'RGATISH.....	8
2. Mamajonova Dilduza Muhammadisoqovna MAKTAB TASVIRIY SAN'ATINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI.....	10
3. Samanova Ra'no Daniyrovna "AJDODLARIMIZ ME'ROSI" MAVZUSIDA MINIATYURA USULIDA ILLYUSTRATSIYA ISHLASH.....	12
4. Сухроб Абдуллаев, Суннат Арслонович Шовдиров ПОЛИТЕХНИЧЕСКОЕ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ; ТОЧКИ СОПРИКОСНОВЕНИЯ	14
5. Бегимова Дилдора Комилжоновна СИРДАРЁ ВИЛОЯТИНИНГ ҲОЛАТИ ЁМОН ЕРЛАРИДА МЕЛИОРАТИВ ТАДБИРЛАР ОЛИБ БОРИШ.....	17
6. Abdulxayev Faxriddin Muxriddinovich RASM CHIZISHNI KONSTRUKTIV QONUN-QOIDALARI.....	19
7. Л.А.ГАФУРОВА ОРГАНИК ВА МИНЕРАЛ ЎЎИТЛАР ВА ПОЛИМЕР АБСОРБЕНТЛАРНИНГ КУЗГИ БУЎДОЙНИНГ "БАХМАЛ-97" НАВИНИНГ ТУП СОНИ ВА БИОЛОГИК ЯШОВЧАНЛИГИГА ТАЪСИРИ.....	21
8. Karimov Islam Ametbaevich O'RTA ARNAWLI TA'LIM MEKTEPLERINDE SIZIW PANIN OQITIWDA DIDAKTIKALIQ OYIN TEXNOLOGIYALARINAN PAYDALANIW.....	23
9. Jumabyoev Nabi Pardaboyevich, Zulpanov Akbar Maxmudovich TASVIRIY SAN'ATDA MAVZULI PLAKATNING AHAMIYATI.....	27
10. Kamolov Firdavs Mirziyayevich, Mamadaminova Shoir Mirzayevna TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA AXBOROT KOMMUNIKASION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	29
11. Karimova Zarina Olimjanovna TASVARIY SAN'AT DARSLARIDA DIDAKTIK PRINTSIPLARINING QO'LLANILISHI.....	32
12. Муҳаббатхон Комилова ҲУДУДДАГИ БУГУНГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТ - ТАЪЛИМ-ТАРБИЯНИНГ АСОСИЙ НЕГИЗЛАРИДАН БИРИ СИФАТИДА.....	34
13. Kubayeva Mahliyo Nuriddinovna BESHTA RIVOJLANTIRISH MARKAZLARI.SAN'AT MARKAZI HAQIDA MA'LUMOT.....	37
14. Mamajonova Yulduz Yusupovna RANGLARNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI:.....	39
15. Mo'minov Shoxboz Komiljon o'g'li TASVIRIY SAN'ATNING JAMIYATDAGI O'RNI VA VAZIFALARI.....	41
16. Pinazarova Munavvar Raximovna TASVIRIY SAN'AT FANINING BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'RGATILISHI.....	42
17. Qoraboyeva Zulfiya Momosodiqovna TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHNING DIDAKTIK PRINSIPLARI	
18. Sohibova Zilola Sadullojevna, BIOLOGIYA VA EKOLOGIYA SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR.....	46
19. Имамов Азизхон Авазханович ЎЗБЕКИСТОН РАНГТАСВИРИДА ПОРТРЕТ ЖАНРИНИНГ	

ШАКЛЛАНИШИДА "ЯНГИ ОДАМ ОБРАЗИ".....	48
20.Mashrabboyeva Tursunoy TASVIRIY SAN`AT DARSLARIDA KOMPOZITSIYA USULLARIDAN FOYDALANISH.....	51
21.Расим Хайров Золимхон ўғли, Ражабова Зарина Обиджон қизи TASVIRIY SAN`AT UQITUVCHISIGA BULGAN ZAMONAVIY TALABLAR.....	54
22.Inamov Akramjon Abdulazizovich TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR.....	56



ТАСВИРИЙ САЊАТ ВА ДИЗАЙН

СХЕМALAR VA QURILISH CHIZMALARINI O'QISH VA BAJARISHNI O'RGATISH

Islam Ametbaevich Karimov

Ustyurt Gaz Kimyo majmuasi

Polipropilen ishlab chiqarish sexi rassom-dekorativ mutaxassisi

Baxitli Ametbaevich Karimov

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi 4-kurs talabasi

Tel: +998937791991

Annotatsiya: Maqolada chizmachilik darslarida o'quvchilarga sxema va qurilish chizmalarini o'qish va bajarishni o'rgatish bo'yicha tavsiyalar berilgan, sxemalarning turlari va vazifalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sxema, chizmachilik, sxema turlari, sxema tiplari, proekt, arxitektura qurilish chizmalari, shartli belgilar.

O'quvchilarga sxemalarni o'qish va bajarishga o'rgatishda darsning kirish qismiga shahar yo'lovchi transportining sxemasini olib kirib, uni o'quvchilar bilan muhokama qilib chiqishni tavsiya qilamiz. Bunga o'xshash misollar universal va sodda bo'lib o'quvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Har qanday sxema ham mavhum, biror narsaning soddalashtirilgan tasviri bo'lib aniq jarayon, konstruksiya va tuzilish kabilarni tushunishni osonlashtirishga xizmat qilishini takidlab o'tish kerak. O'quvchilar quyi sinflardagi mehnat ta'limi darslaridan boshlab sodda kinematik va elektrik sxemalardagi shartli belgilashlar, ularni o'qish va bajarish bo'yicha dastlabki ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Chizmachilik darslarida bu bilimlarni kengaytirib, bir tizimga keltirish talab qilinadi.

Umumta'lim maktablari uchun nashr qilingan chizmachilik darsligida

kinematik hamda elektrik sxemalar haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, o'quvchilarni shu sxemalarni o'qishga o'rgatish ko'zda tutilgan. Kasb-hunar kollejlarning mos mutaxassisligida talabalar sxemalarni o'qish va bajarish malakalarini yetarlicha chuqur o'rgangan bo'lishlari talab qilinadi. Umuman, har bir o'quvchini sxemalarni to'g'ri o'qish va undan turmushda foydalana olish malakalarini egallaganligi muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Shuning

uchun sxemalarni o'qish va bajarish bo'yicha asosiy ma'lumotlarni keltirib o'tamiz. Ishlatilish sohasi va mazmuniga ko'ra sxemalar chizmachilik kursining asosiy materialini tashkil qiladigan proeksion chizmachilikdan ko'p jihatlari bilan farqlanadi. Bu farqlar qisqacha quyidagilardan iborat:

o Sxemalar ma'lum sohada qo'llaniladigan tayyor mahsulotlarning konstruksiyalarini ochib ko'rsatmasdan, ularning tarkibiy qismlarini o'ta

soddalashtirilgan shartli belgilar yordamida o'zaro bog'lanishi va harakatlarini tasvirlaydi;

o Sxemalarning vazifasi biror ko'rinishdagi: mexanik (kinematik sxemalar), elektrik (elektr sxemalari), siqilgan havo yoki gaz (pnevmatik sxemalar) va h.k. energiyaning harakati va o'zgarishini yaqqol ko'rsatishdan iborat. Yaqqollikni ta'minlash maqsadida



sxemaning hamma elementlari fazoda haqiqiy joylashgan o'rniga qaramasdan bitta tekislikka yoyib tasvirlanadi;

o Sxemalarning vazifasi qurilma tarkibiga kiruvchi elementlarni ko'rsatib berish emas, balki ularning o'zaro aloqalari xarakterini ochishdan iborat bo'lganligi uchun sxema bu aloqalar xarakterining o'zgarish ehtimoli bilan bog'liq malumotlarni (mexanik uzatmalarda tezlikning o'zgarishi, radiopriyomnik to'lqinlarini turli diapazonlarga to'g'rlash, televizor kanallarini almashtirish va h.k) ham o'z ichiga olishi kerak.

o Ko'p hollarda o'quvchining texnik bilimlarga egaligi talab qilinmaydigan murakkab bo'lmagan proeksion chizmani o'qishga nisbatan sxemalar bilan ishlash (ularni o'qish va bajarish), ma'lum darajada o'quvchilarning shu sohadagi texnik bilimlar saviyasiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarga qiziqarli va ular tushunishi oson bo'lgan sxemani o'qish uchun individual topshiriqlar tanlash hamisha o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi kerak. O'qituvchi rahbarligida plakatdan sxemani frontal o'qish ta'limiy xarakterga ega bo'lib, o'quvchilarning faol ishtirokida o'tkazilishi kerak. Sxemalar bilan ishlashdagi qiyinchiliklardan biri, ularda turli xil shartli belgilashlarning ko'pligi hamda materialni o'rganishga ajratilgan vaqtning kamligi sababli, o'quvchilar ularni eslab qolishda qiynaladilar. Shuning uchun bu yerda

o'qituvchi asosiy e'tiborni o'quvchilarda ko'proq ma'lumotnomalar (jadvallar, shartli belgilar) bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratishi kerak. Mavzuni o'zlashtirishda o'quvchilar sxemaning zarur joylariga (yozuvlarning o'rniga) shartli belgilarni qo'yib chiqishi talab qilinadigan topshiriqlar yaxshi natija beradi. Yirik o'lchamda bajarilgan kinematik sxema (tokarlik yoki boshqa

stanokning tezliklar qutisi, avtomobilning uzatmalar qutisi va h.) plakatini

o'quvchilar bilan frontal o'qishda o'qituvchi tishli mexanizmlardagi ?yetakchi? va ?yetaklanuvchi? atamalarining ma'nosini tushuntirishi hamda tezlikni o'zgartirishni hisoblash qoidalariga umumiy tarzda to'xtalib o'tishi kerak bo'ladi. Buning uchun shartli belgilarini almashtirish imkoniyati bo'lgan plakatdan foydalanish qulaydir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.I Ro'ziyev, A.O.Ashirboyev muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi.
2. Ro'ziyev E.I. Chizmachilik o'qitish metodikasi.
3. Воротников И.А. Занимательное черчение.
4. www.google.uz



МАКТАБ ТАСВИРИЙ SAN'ATINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

**Mamajonova Dilfuza Muhammadisoqovna, Namangan viloyati, Norin tumani, 16 -
maktabning Tasviriy san'at fani o'qituvchisi, Mutaxassis**
Tel:+998 99 3247713

Annotatsiya

Maktab tasviriy san'atini o'qitish texnologiyasida asosiy o'rinni uni o'qitish didaktikasi va metodikasi oladi. Chunki metodika va didaktika maktab tasviriy san'atidan o'quvchilarga bilim - malaka berishning eng asosiy va oxirgi pedagogik jarayoni sanaladi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, didaktik, metodika, bilim, malaka, rasm, bezak, dars

Maktab tasviriy san'ati o'quv fani bo'yicha ham davlat ta'limi standarti asosida uning o'quv dasturi va o'qitish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ma'lumki, maktab tasviriy san'atning dars mashg'ulotlari besh turdagi mashg'ulot xarakterida, yoki texnologiyada amalga oshiriladi.

1. Narsani o'ziga qarab rasm ishlash. 2. Tematik kompozitsiya ustida ishlash.

3. Dekorativ amaliy - bezak san'ati. 4. Haykaltaroshlik ishlari.

5. San'atshunoslik asoslaridan tashkil topgan mashg'ulotlari turlarida olib boriladi

"Narsani o'ziga qarab rasm chizish" mashg'ulotlarida naturadan, ya'ni buyumni o'zini ko'rib, undan shaklni imkoniyati boricha naturadan tasvirlanadi. Tematik kompozitsiyada esa o'quvchilar o'ylab - o'ylab, uzoqlarga qarab nimalarnidir esga olish asosida rasm chizadilar. Haykaltaroshlikda esa, qalam - bo'yoq bilan emas, loy - plastilin bilan, oz bo'lsada jismoniy mehnat vositasidagi mashg'ulotlar texnologiyasi mashg'ulotning asosi bo'ladi. Shuning uchun maktab tasviriy san'ati darslaridagi pedagogik texnologiyalarini ta'rifini keltirish va ularni: "Dars texnologiyasi" turlariga ajratishda ham alohida e'tibor zarur bo'ladi. Xo'sh, maktab tasviriy san'atini o'qitishdagi pedagogik texnologiyani umumiy holda qanday tushunamiz? Bunga javob,- tasviriy san'atini pedagogik texnologiyasi - bu tasviriy san'at o'qituvchisining o'quvchilarga ma'lum davrda va sharoitda san'at bilimi va malakasini berish vositalari asosida oldindan belgilangan maqsadga erishish va bu vazifani bajarishni kafolatlay oladigan pedagogik jarayon - deb aytamiz. Ya'ni o'qituvchini 45 minut dars jarayonida belgilangan, mo'ljallangan maqsadga erishish uchush ta'lim va tarbiya vositalaridan foydalanishning didaktik, metodik va uslubiy jarayonlari majmuasi asosida kafolatlangan natijalarga erishishni ta'minlaydigan pedagogik jarayondir, - desak to'g'ri bo'lsa kerak. Maktab tasviriy san'atini o'qitish texnologiyasida asosiy narsa - bu kafolatlangan natija bo'yicha imkoniyat, shart - sharoit, vositalar, metodika va uslublar bo'lib, ularni tashkil etish - tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi vauning printsiplarining asosiy vazifasiga kiradi. Chunki, maktab tasviriy san'atini o'qitish didaktikasi har bir dars - mashg'uloti uchun, eng avvalo berilayotgan bilim - malakalarni ilmiy asosda bo'lishi ta'minlanadi. Ilmiylik printsipti - o'quvchilarga rasmi chiziladigan natura, ob'yekt, mavzu, voqea - hodisalarni yoki tahlil qilinadigan san'at asari bo'yicha beriladigan har bir ma'lumotni ilmiy va fan ma'lumotlari asosida bo'lishini ta'minlaydi. So'ngra beriladigan bilim-malakalar sistemali, ketma-ketlik asosda bo'lishi ta'minladiki, bu pedagogikani yoki didaktikani osondan - qiyinqaborish printsipti asosida olib boriladi. Bu jarayon avval osonroq tasvirlanadigan, oddiy predmetlar rasmini chizib, keyingi mashg'ulotlar asta murakkablashtirib borish asosida quriladi. Bular maktab tasviriy san'ati dasturida berilgan mavzularning ketma - ketlik mazmunida o'z ifodasini topgan bo'ladi. Shuningdek, maktab tasviriy san'ati bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilim - malakalar didaktikani tarbiyaviylik printsiptiga amal qilingan holda olib boriladi. Chunki maktab tasviriy san'ati o'quv predmeti o'quvchilarni badiiy - ahloqiy, estetik, mehnatga, o'z halqiga, Vataniga, ota - bobolar ijodiga katta xurmat bilan qarashga o'rgatadi. Maktab tasviriy san'atining Davlat dasturi



bo'yicha o'quv materiallarining hammasi ko'rgazmali o'qitishni talab qiladi. Chunki, - "Maktabda ko'rgazmasiz o'qitib bo'lmaydigan yagona o'quv fani bu tasviriy san'atdir" - deb doimo ta'kidlanishi ham bejiz emas. Shuning uchun maktab tasviriy san'atini o'qitish - texnologiyasida ko'rgazmalilik - oldin belgilangan maqsadga erishishni kafolatlay oladigan didaktik printsipting eng asosiysi va eng samaralisi sanaladi. Maktab tasviriy san'atini o'qitish texnologiyasidagi didaktik jarayon V.P.Bespalko ko'rsatib o'tganidek, - Yangi dars materialiga kirish - ya'ni, - o'quvchilarni yangi dars materialini qabul qilishga tayyorlash - motivatsiya jarayoni bilan boshlandi. Bu o'quvchilarni yangi dars materialiga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularni dars davomidagi faolligini, mustaqilligini, tashabbuskorligi va ijodkorligini ta'minlash imkoniyatini beradi. Maktab tasviriy san'atini o'qitishda eng ko'p ishlatiladigan metod "Og'zaki bayon etish" metodi bo'lsada "Ko'rgazmali o'qitish" va "Amaliy ishlar" metodidan ham har bir dars jarayonida foydalaniladi. Chunki, maktab tasviriy san'ati o'quv fanining o'ziga xos xarakteriga ko'ra ko'rgazmasiz o'qitish mumkin bo'lmagan o'quv fani hisoblanadi. Maktab tasviriy san'ati darslarida: "Og'zaki bayon etish" metodini suhbat, hikoya, savol - javob, ma'ruza kabi uslublaridan; - "Ko'rgazmali o'qitish" metodini namoyish, illyustratsiya va reproduksiya bilan ishlash, doskada o'qituvchi rasmi va eksursiya, kabi uslublardan; - "Amaliy ishlar" metodining rasm ishlash, haykal ishlash, badiiy - amaliy san'at, kompozitsiyalar ustida ishlash, san'at asarlari tahlili, san'at asarlari yuzasida insho, referat yozish, kabi uslublardan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, maktab tasviriy san'atini o'qitish texnologiyasi o'zini oldindan belgilangan maqsadiga erishish uchun bu fanni o'qitish didaktikasi va metodikasidan a'lo darajada foydalana olishi o'qituvchi zimmasidagi asosiy vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyakov X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T., 2001, 202 b.
2. Abdurasilov S. Tasviriy san'at va o'qitish metodikasi. - T., 2011. - 137 b.
3. Nurtoyev O', Abdurasilov S. va boshqalar. Tasviriy san'at 5. - T., 2015. - 126 b.
4. R. Xasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T. 2005 yil



"AJDODLARIMIZ ME'ROSI" MAVZUSIDA MINIATYURA USULIDA ILLYUSTRATSIYA ISHLASH.

Samanova Ra'no Daniyrovna
Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani 1- sonli
umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi.
Telefon: + 998(97) 427 68 05

Annotatsiya: Mazkur maqola 7- sinf tasviriy san'at darsligi bo'yicha tavsiyalardan iborat. Ushbu darslikdagi mavzular bir yillik ish rejaga to'g'ri kelishi uchun qo'shimcha mavzular kiritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni 4-chorakda 5 ta mavzu berilgan, asosan kitobat san'atiga oid mavzular o'rin egallagan bo'lib, "Kitob illyustratsiyasi" mavzusida "Soxibjamol ba maxluq" multfilmiga kompozitsiya ishlash topshirig'i berilgan. Shu o'rinda mumtoz san'at asarlari o'quvchilar tasavvur olamini rivojlantirish, ma'naviyatini boyitish uchun xizmat qiladi, buyuk ajdodlarimiz kabi yetuk ma'rifatli inson bo'lish hissini uyg'otadi. Miniaturaga asarlari asosan rangtasvirda ishlanganligi tufayli o'quvchilar aynan miniaturaga asarlaridan nusxa ko'chirish orqali ranglarni o'z o'rnida qo'llashni va ranglarni his qilishni ham o'rganadilar.

Kalit so'zlar: Miniaturaga, illyustratsiya

O'rta Sharq adabiyoti va miniaturasi o'rta asr qo'lyozma kitob san'ati shoh asarlarida o'z ifodasini topgan so'z va tasvirning uzviy bog'liqligi tarzida jahon madaniyati xazinasiga qo'shilgan bebaho hissasidir.

O'rta Sharq miniaturaga maktablarining mashhur rassomi Kamoliddin Behzod 1455-yilda hunarmand kosib oilasida dunyoga kelgan. Behzod yashagan davr va ma'naviy muhit, Bobur ta'biri bilan aytganda, "Oltin davr" edi. O'sha zamonning yetuk shaxslaridan biri Mirak Naqqosh boshchilik qilgan Nigoriston (san'at akademiyasi)dagi ijodiy muhit yosh Behzodda san'at va hunarga cheksiz muhabbat uyg'otdi.

XV asr Hirot adabiy, badiiy-ilmiy, san'at va madaniyat olamidagi juda ko'p iste'dodlar kabi Behzod ham Alisher Navoiy rahnamoligida ijod qildi va kamol topdi. Ulug' shoir bilan hamkorlik qilish Kamoliddin Behzodni buyuk musavvir, naqqosh bo'lib etishuvi uchun asosiy omil bo'ldi. Zotan, uning ijodiy faoliyati gullab-yashnadi. Hattoki, Sulton Husayn Mirzo uni "Asr nodiri, musavvirlar peshvosi" degan yuksak lutf bilan ulug'laydi va uni saltanat kutubxonasiga boshliq etib tayinlaydi.

Bunday g'amxo'rlik Kamoliddin Behzodni yetuk va barkamol, nafis tasviriy san'at asarlarini yaratgan "Moniyi soniy" unvoniga ega bo'lgan Sharqning ulkan san'atkoriga aylantirdi. U tom ma'nodagi "Sharq Rafaeli" edi.

Behzod rassom sifatida tanilgach, Sulton Husayn Boyqaro saroyiga xizmatga chaqirildi. Ma'lum vaqtdan so'ng saroy kutubxonasining rahbari etib tayinlandi. Keyinchalik "Behzod akademiyasi" deb atalgan bu yerda qizg'in ijod bilan band bo'ldi, ko'plab mo'tabar qo'lyozmalarni yaratishda rahnamolik qildi, ma'lum qismini ziynatlashda shaxsan ishtirok etdi.

O'z faoliyati va ijodi bilan musavvirlik sa'atining keyingi taraqqiyotini belgilab bergan Behzod o'z zamondoshlari tomonidan yuqori baholangan. Uning asarlarida tabiat jonli, hayot manzaralari aniq, haqqoniy, ishonarli va ta'sirchan tasvirlangan. Chiziqlar nozik, ranglar nafis ishlangan. Portretlarida inson, uning ruhi, qiyofasi, his-tuyg'ularini aks ettirishga ahamiyat bergan. Sa'diyning "Bo'ston", "Guliston", Fariddin Attorning "Mantiq ut tayr", Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiylarning "Xamsa", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" kabi asarlariga miniaturalar ishlagan. Behzod asarlari bilan bezatilgan qo'lyozmalar O'zbekiston, AQSH, Buyuk Britaniya, Eron, Rossiya va boshqa



davlatlardagi kutubxona, qo`lyozma fondlari, muzeylar va shaxsiy majmualarda saqlanadi.

Behzod ustoz san'atkor sifatida Hirot va Tabrizda bir qancha shogirdlarni tarbiyalagan. Qosim Ali, Darvish Muhammad, Maqsud, Muzaffar Ali, Mahmud Muzahhib kabi shogirdlari Behzod an'alarini O`rta Sharqqa yoyib, Behzod miniatyura maktabini shakllantirdilar.



O`zbekistonda Behzod an'analari 20-asrga kelib Usto Mo`min (A.Nikolayev, Sh.Hasanova, Ch.Ahmarov, Q.Basharov, T.Muhammedov, T.Sa'dullaev, J.Umarbekov, Sh.Muhammadjonov kabi rassomlar ijodiga ijobiy ta'sir ko`rsatdi. Behzod ijodi va me'rosi keng o`rganilmoqda. Uning nomini abadiylashtirib Kamoliddin Behzod nomidagi davlat mukofoti ta'xis etilgan. (1997)

Milliy rassomlik va dizayn institutiga Behzod nomi berilgan.

O`quvchilarga vazifa qilib Kamoliddin Behzodning miniatyura asarlaridan illyustratsiya sifatida nusxa ko`chirish beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1.Sharq miniatyurasi va adabiyoti. Toshkent-1987. G`ofur G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

2.Bolalar ensiklopediyasi. Toshkent, "O`zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti-2002.

3.Tasviriy san'at oqimlari.Toshkent-2008, "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.



ПОЛИТЕХНИЧЕСКОЕ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ; ТОЧКИ СОПРИКОСНОВЕНИЯ

**Сухроб Абдуллаев, доцент,
Бухарский государственный университет
Суннат Арслонович Шовдиров,
ст. преподаватель, член СХ Р.Уз
Навоинский государственный педагогический институт
Телефон +998902980034 abdullayev.sukhrob@mail.ru
Телефон +998905005394 sunnat.10@mail.ru**

Аннотация: В тезисах рассмотрены некоторые вопросы политехнического и художественного образования с точки зрения как межпредметных связей, особенно в сфере народного - декоративно прикладного искусства, так и обоснования введения дополнительной специальности "Труд" в направление образование изобразительное искусство и инженерная графика.

Ключевые слова: Профессиональная ориентация, инновационная деятельность, межпредметные связи, политехническое образование, трудовое воспитание, художественное образование, эстетическое воспитание

Abstract: Theses discuss some issues of polytechnic and art education from the point of view of both interdisciplinary connections, especially in the field of folk arts and crafts, and the rationale for introducing the additional specialty "Labor" in the direction of education in fine art and engineering.

Keywords: Professional orientation, innovative activity, intersubject communications, polytechnical education, labor education, art education, aesthetic education

На данном этапе развития Реформы системы образования Республики Узбекистан, большое, поистине государственное значение приобретает решение задач качественной подготовки кадров педагогов высшей и средней школы.

И важнейшее постановление Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева "О мерах по дальнейшему развитию сферы педагогического образования" от 27.02.2020 года направлено именно на:

- совершенствования качества подготовки педагогических кадров на основе передовых международных стандартов.

- необходимости усиления внимания к качеству подготовки кадров для сферы образования, широкого внедрения педагогического зарубежного опыта в данную сферу, улучшения инфраструктуры педагогического образования.

Меры, предусмотренные данным Постановлением вытекают из исторического Послания Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 24 января 2020 - года, где приоритетными выдвинуты масштабные задачи по определению приоритетных направляющих развития сферы педагогического образования, подготовка профессионально - педагогических кадров - современные методы обучения и воспитания, профессионально ориентационная работа в школе - выявление способностей учеников, совершенствование учебных планов и программ по направлениям образования и специальностям, эффективная организация научной и инновационной деятельности - взаимосвязь науки, образования и производства, связь со школами, перспективные планы подготовки кадров и другие, не менее важные задачи.

И как должное, пять Инициатив Президента, заключивших в себя ключевые вопросы духовного развития молодёжи, повышение интереса молодёжи к музыке,



рисованию, театру и другим видам искусства. Инициативы нашего Президента были приняты в качестве Молодёжной стратегии ООН, ибо и для них это было Новый проект духовного образования молодёжи.

До настоящего времени, согласно нормативно - правовым актам Закона об образовании Республики Узбекистан и Национальной программы подготовки кадров, подготовка учителей изобразительного искусства и черчения осуществлялась в рамках направления образования 5110800 "Изобразительное искусство и инженерная графика", а также специальностях "Изобразительное искусство" и "Инженерная графика".

Однако, так как политехническое образование наряду с художественным, становится важнейшей частью системы подготовки кадров учителей, необходимо, на наш взгляд, кооперация как трудового, так и художественного образования. И в этой связи очень важно внимательное изучение опыта ведущих зарубежных вузов. К примеру, на пространстве СНГ без сомнения ведущим педагогическим центром, готовящим с 1943 года учителей черчения и рисования, а также труда и подготовившим научно - педагогические кадры для стран СНГ являлся художественно - графический факультет, ныне факультет "Изящных искусств" Московского педагогического государственного университета. Многие учёные - педагоги Республики, к примеру проф. С. Булатов, С. Абдуллаев, Р. Хасанов, Б. Бойметов, С. Абдирасилов и др. защитили докторские и кандидатские диссертации именно в этом Вузе, и практически у всех ведущих учёных в этой отрасли докторские диссертации так или иначе связаны с прикладным искусством Узбекистана, что в свою очередь предполагает тесную связь с трудовым воспитанием учащейся молодёжи. К примеру, докторская диссертация С.С. Булатова посвящена непосредственно народному декоративно - прикладному искусству Узбекистана, использованию его вековых традиций в нравственном, трудовом и эстетическом воспитании, что является и ключевым в его книге [1, с.47].

Московский факультет был первый, который стал готовить учителей рисования, черчения и труда для общеобразовательных школ с высшим образованием. В 70 - 80-е года прошлого столетия в квалификационную характеристику учителей черчения и рисования вошло понятие "художественный труд" в качестве дополнительной специальности по рекомендации научно - методического совета Минвуза. Большая роль в этом принадлежала ведущему специалисту Орловского государственного педагогического института, заведующему кафедрой художественного труда профессору А.С. Хворостову. В его многочисленных трудах виды технологии материалов предстаёт во всём своём эстетическом богатстве. [2. с. 113].

Особенно тесную связь политехнического и художественного образования обеспечивалось в предмете "Художественное конструирование", которое изучалось на третьем и четвёртом курсах. Данный предмет являлся синтезом использования общетехнических знаний, получаемых как по черчению, технологии материалов так и художественно - технологическим навыкам.

И поэтому, в современных условиях, по нашему мнению, заслуживает внимания опыт подготовки учителей изобразительного искусства и инженерной графики с дополнительным профилем подготовки. Так, в настоящее время, в МПГУ ведется подготовка направления образования "Изобразительное искусство и дополнительное образование".

Нам кажется, в современных условиях необходимо произвести корректировку учебных планов и программ с точки зрения тесных межпредметных связей



политехнического и художественного образования.

Использованная литература:

1. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати.-Тошкент: Меҳнат, 1994. - 464 б., ил.
2. Хворостов А.С., Хворостов Д.А. Маркетри и инкрустация (искусство и технология): Уч. пос. М.: Форум, НИЦ ИНФРА - М, 2018. - 224 с.



СИРДАРЁ ВИЛОЯТИНИНГ ҲОЛАТИ ЁМОН ЕРЛАРИДА МЕЛИОРАТИВ ТАДБИРЛАР ОЛИБ БОРИШ

Бегимова Дилдора Комилжонова
ЎзМУ, Биология факультети магистранти
bobotikfd@mail.ru +99893 562-40-61

Аннотация. Мақолада Сирдарё вилоятининг ҳолати ёмон, шўрланган тупроқларининг унумдорлигини ошириш мақсадида олиб бориладиган мелиоратив тадбирларнинг мазмуни ёритилган.

Калит сўзлар: мелиорация, шўрланиш, ботқоқланиш, шўр ювиш, грунт сувлар

Шўрланиш ва ботқоқланишнинг олдини олиш ва шўрланган ерларнинг ҳолатини тубдан яхшилаш тадбирлари, энг аввало, шўрланишни содир этувчи омилларни барҳам қилишга қаратилиши керак. Уларга минераллашган грунт сувларини чучуклаштириш ва уларнинг сатҳини "критик чуқурлик" гача пасайтириш ишлари киради. Сув таъминотини яхшилаш учун суғориш тармоқлари ва суғориладиган далалардан сув йўқотишни камайтириш ниҳоятда зарур. Бунинг учун суғориш тармоқларини ўрнатилган намунали тартибда ушлаб туриш, суғориш меъёрларини қатъий белгилаш зарур. Ҳар бир муайян хўжалиқда зовурларни чуқурлиги ва суғоришлар сони масаласини барча табиий ва хўжалик юритишнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиб ҳал қилиш керак.

Мавсум давомида тўпланган тузларни илдиз қатламидан фақат шўр ювиш тадбирлари ёрдамида йўқотиш мумкин. Шўр ювишнинг мақбул муддатлари сентябрь-декабрь ойлари, грунт сувларининг энг максимал чуқурликда жойлашган, тупроқларда ҳали юқори ҳарорат сақланган, буғланиш жараёни пасайган, шўрланишнинг қайта тикланиши минималлашган давр ҳисобланади. Шўр ювишда тузларни максимал миқдорда чиқариб юбориш учун далалар шўр ювишга яхши тайёрланиши зарур.

Шўрланиш ва ботқоқланишнинг олдини олиш учун суғориладиган ерларга табақалашган ва замонавий, экишгача бўлган ишлов бериш, шўр ювиш, вегетацион суғориш режими ва техникаси, минерал ва органик ўғитлар қўллаш ва самарали агромелиоратив тадбирлар тизимини киритиш керак. Вилоятда тарқалган (Гулистон, Ховост, Мирзаобод туманларида) гипсли тупроқларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, унумдорлигини ошириш алоҳида тадбирларни талаб этади. Бундай оғир мелиорацияланувчи тупроқларда ерларни чуқур ҳайдаш, органик ўғитлар солиб шўр ювиш ишларини сифатли ўтказиш яхши самаралар беради. Мелиорацияланган бундай тупроқларнинг унумдорлигини сақлаб қолиш учун алмашлаб экиш тизимларини яхши йўлга қўйиш, ўғитлардан тўғри фойдаланиш, табақалаштирилган ишлов бериш, зарурият туғилганда кимёвий мелиорация тадбирларини ўтказиш яхши самара беради.

Мелиоратив ҳолати оғир майдонларда дастлабки 1-2 йил ичида "ўзлаштирувчи" экинлар - беда, дуккакли, оралиқ экинлар экиш қутилган натижаларни беради, тупроқда органик моддалар миқдори кўпайиб боради. Мелиоратив ҳолати "ўта ёмон" деб баҳоланган кучли ва жуда кучли шўрланган, грунт сувлари ер юзасигача кўтарилган, сув таъминоти етишмайдиган, мелиорация тизимлари ишдан чиққан, фойдаланмасдан "бўз" ҳолатига айланган, катта меҳнат ва ҳаражатлар талаб этувчи ерларни пахта майдонлари тасарруфидан чиқариш, уларни ғалла, озикабоп экинлар, беда, полиз-сабзавот экинлари етиштириш, боғлар, узумзорлар барпо қилишда фойдаланиш катта иқтисодий самаралар беради.



Фойдаланилган адабиётлар

1.Кўзиёв Р.Қ., Абдурахмонов Н.Ю., Боиров А.Ж., Тошқўзиёв М.М., Ахмедов О.У., Исмонов А.Ж., Мирсодиқов М.М. "Сирдарё вилояти суғориладиган тупроқларини мелиоратив ҳолати ва уларнинг унумдорлигини сақлашга доир тавсиялар". ТАИТИ. Т.:2016. 19-б.

2.С.А.Абдуллаевв, С.Қ.Номозов. Тупроқ мелиорацияси. Дарслик. "Ўзбекистон Миллий энцеклопедияси" Давлат илмий нашриёти. Т.:2011. 13-б.



RASM CHIZISHNI KONSTRUKTIV QONUN-QOIDALARI

Abdulxayev Faxriddin Muxriddinovich

Namangan viloyati 22-sonli DIMI tasviriy san'at fani o'qiyuvchisi

Telefon +998 94 173 39 73

faxriddinabdulxayev@gmail.com

Annotatsiya: Tezisda rasm chizishni konstruktiv qonun-qoidalarini keltirgan. Bu qonun-qoida orqali boshqa ko'plab naturmortlarni qulay uslubda ishlash mumkin. Konstruktiv qonun-qoidadan hozirda o'quvchilarning tasviriy san'at fanida, geometrik shakl va jismlarni chiza olishi, naturmortni qog'ozga osongina joylashtirishda keng foydalanib kelinmoqda.

Kalit so'z: Naturmort, natura, geometrik shakl va jismlar (kub, slindir, konus), qog'oz, gips.

Konstruktiv rasm bu - buyumlarni tasvirlashda ularning asosiy o'lchamlarini olib chizilgan chiziqli perspektiv rasmdir. Konstruktiv rasm chizishni egallash bilan biz geometrik jismlarni tasvirlashni o'rganamiz. Har qanday buyumni tasvirlash uchun, konstruktiv asosda qurish yo'llarini bilish kerak. Ayniqsa geometrik jismlarni tasvirlash uchun bu yo'l katta yordam beradi.



Kub, konus va slindirni konstruktiv qurish usulini ko'rib chiqaylik: Konstruktiv rasm chiziqdagi yengil o'tkazish bilan buyumning tasvir tekisligidagi kompozitsiyasini topishdan boshlanadi. Qog'oz betiga naturadagi buyumlarning joylari umumiy belgilab chiqiladi. Keyin har bir buyum alohida-alohida sxematik chiziladi. (1-a rasm).



Ishning keyigi bosqichida uch geometrik jismning konstruktiv qurilishi va perspektiv qisqarishlari hisobga olinib ko'rinmaydigan qirralari ham diqqat bilan chiziladi. (1-b rasm).

Gipsdan yasalgan geometrik jismlarni tasvirlashdashi narsaga e'tibor berish kerakki, jismning oq narsiz yuzasi naturadagi hamma yorug' yuzalarni bir-biridan farqlashga imkon beradi. Bu endigina chizishni o'rganayotgan o'quvchilar uchun unchalik qiyin emas. Qo'yilgan naturani konstruktiv va perspektiva qonuni asosida qurib bo'lingach, keyingi bosqich, ya'ni buyum shaklini berishga o'tiladi.

Naturada rang (tus) jihatdan bir xil yuzalar chizig'i berib bekitiladi. Rangi to'q joylar yumshoqroq qalamda ishlanib ajratiladi. Eng yorug' joy oq qog'oz rangida qoldiriladi. (1-d rasm). Keyingi bosqichda chizuvchi bo'laklar orasidagi farqni topish va yaxlitlik holatiga olib kelishi kerak. Ishning oxirgi bosqichlarida ishdagi xato-kamchiliklar tuzatiladi. Kompozitsion qurilishi, rang holati, bo'laklar orasidagi bog'lanish hamda umumiy ish natijasiga qarab chiqiladi. (1-e rasm).

Rasm chizishni konstruktiv qonun-qoidalarini





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. V. A. Yablonskiy. Prepodovanie predmetov "Risunok" i "Osnov! kompozitsii". Moskva. "Vyushaya shkola" 1983.
2. B. Boymetov. Qalamtasvir. Musiqa nashriyoti. Toshkent. 2006.



ОРГАНИК ВА МИНЕРАЛ ЎҒИТЛАР ВА ПОЛИМЕР АБСОРБЕНТЛАРНИНГ КУЗГИ БУҒДОЙНИНГ "БАХМАЛ-97" НАВИНИНГ ТУП СОНИ ВА БИОЛОГИК ЯШОВЧАНЛИГИГА ТАЪСИРИ

Л.А.ГАФУРОВА

б.ф.д., профессор, Ўзбекистон Миллий Университети

glazizakhon@yandex.ru +99897-767-81-82

**А.С.МУРАТКАСИМОВ (PhD), Дон ва дуккакли экинлар илмий тадқиқот
институтини Фаллаорол илмий тажриба станцияси**

alisher.muratkasimov@mail.ru +99893-294-45-07

Аннотация. Ушбу мақолада лалми типик бўз тупроқлар шароитида органик ва минерал ўғитлар ва полимер абсорбентларнинг кузги буғдойнинг "Бахмал-97" навининг туп сони ва биологик яшовчанлигига таъсири баён этилган.

Калит сўзлар. Лалми ерлар, типик бўз тупроқ, органик ва минерал ўғитлар, абсорбент, ўсимлик туп сони, қишлаш даражаси, биологик яшовчанлик.

Лалмикор майдонларда галла-шудгор алмашлаб экиш схемаларида тоза шудгор остига берилган органик ва минерал ўғитлар, тупроқдаги намликни тўплайдиган (абсорбция қиладиган) полимер абсорбент ҳамда биологик фаол ўсиш стимуляторларининг тупроқдаги намлик ва минерал озиклантириш тартиби, буғдойнинг ўсиши, ривожланиши, туп сони ва биологик яшовчанлигига ҳамда ҳосилдорлигига таъсирини ўрганиш ҳозирги кундаги долзарб вазифалардан ҳисобланади.

Ўсимликларга органик ва минерал ўғитларни қўллаш бўйича А.В.Соколов [6], И.И.Синягин [5], Г.А.Лавронов [3], П.И.Федотов, Р.Абсалямов, А.И.Павлова [7], Л.А.Гафурова, Х.Юсупов, А.С.Мураткасимов [1], А.Боиров, Х. Нуриддинова [2] ўсимликлар азотни асосан нитрат ва аммоний шаклида ўзлаштириши, органик ва минерал ўғитларни мақбул ўзаро нисбатда тўлиқ меъёрда қўллаш дон экинларида учрайдиган илдиз чириш, сариқ ва қўнғир занг касалликларига чидамлилигини оширишини, аксинча азотли ўғитларни меъёрдан кўп миқдорда қўллаш буғдойда касалликлар билан зарарланиш даражасини ошишига сабаб бўлиши аниқланган.

Тоза шудгор остига берилган ўғитлар ва полимер абсорбентларнинг "Бахмал-97" буғдой навининг вегетация даврида умумий биологик яшовчанлигига таъсири

№	Вариантлар	Ўсимлик туп сони, дона/м ²	Қишлаш даражаси, %	Биологик яшовчанлиги, %	Назоратга нисбатан биологик яшовчанлиги, %
1	Назорат	137,0	83,3	64,2	100
2	N ₄₀ P ₄₀ K ₄₀ (фон)	153,8	91,4	69,2	107,9
3	Фон + гидрогель 20кг/га	146,3	88,8	79,3	123,4
4	Фон + Aquasorb (Франция) 20 кг/га	148,1	88,9	85,7	133,4
5	Фон + Биоазот 1 л/га	150,8	81,3	85,2	132,7
6	N ₄₀ +Биоазот 1,5 л/га	160,9	82,4	84,9	132,3
7	Фон + Микроўстиргич 1,5 л/га	153,3	83,8	84,0	130,8
8	N ₄₀ +Микроўстиргич 2 л/га	147,7	77,8	88,2	137,4
9	Фон+ 10 т/га гўнг	154,2	85,1	90,9	141,6



Лалмикор майдонларда кузда экилган буғдой ўсимлигининг қишлаш даражаси, яъни эрта баҳорда сақланиб қолинган ўсимлик туп сони муҳим кўрсаткичлардан бири ҳисобланади. Маълумотларга асосан тажрибанинг ўғит ва абсорбентлар берилмаган назорат вариантыда тоза шудгордан сўнг экилган буғдойнинг кузда униб чиққан туп сони ўртача 137,0 дона/м² ни ташкил этди. Андоза вариант сифатида тоза шудгор қилиш олдидан N40 P40 K40 берилган вариантда бу кўрсаткич назоратга нисбатан 16,8 донага кўплиги қайд этилган. Тоза шудгор остига берилган "Гидрогел" ва "Aqvasorb" абсорбентлари берилган вариантлардаги буғдойнинг туп сони назоратга нисбатан 9,3-11,1 донага, 10 т/га гўнг билан бирга 40 кг/га ҳисобида фосфорли ва калийли ўғитлар берилган вариантда униб чиққан буғдой туп сони 17,2 та га кўплиги аниқланди.

Лалмикор майдонларда кузги бошоқли экинларининг биологик яшовчанлиги, яъни ўрим-йиғим пайтида сақланиб қолинган поялар ва бошоқлар сони навларнинг биологик хусусиятларига, тупроқдаги намлик ва озиқа моддалар миқдорига, ўсимликнинг 1 м² даги туп сонига ва бошқа кўплаб омилларга қараб ўзгаради. Тажриба натижаларига кўра, тоза шудгор остига берилган органик ва минерал ўғитлар тоза шудгордан сўнг экилган буғдойнинг қишлаш даражасига, умумий биологик яшовчанлиги, яъни ўрим йиғим пайтда сақланиб қолинган ўсимлик туп сонига ижобий таъсир этиши аниқланди. Тажрибанинг назорат вариантыда "Бахмал-97" буғдой навининг қишлаш даражаси ўртача 83,3%, биологик яшовчанлиги эса 64,2% ни ташкил этди. Бу кўрсаткичлар андоза вариантда (N40 P40 K40) 91,4 ва 69,2% ни, тоза шудгор остига берилган 10 т/га гўнг ва 40 кг/га фосфорли ва калийли ўғитлар берилган вариантда 85,1 ва 90,9% ни ташкил этди.

Хулоса қилиб айтганда, лалми типик бўз тупроқлар шароитида ўсимликнинг қишлаш даражаси 77,8-91,4 % ни, биологик яшовчанлиги 64,2-90,9% ни ташкил этган бўлса, назоратга нисбатан биологик яшовчанлик 7,9% дан 41,6% гача юқори эканлиги аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Muratkasimov A.S., Yusupov N.Y., Umurzakov A.A., Gafurova L.A. Ways of rational use of dry sierozems // European Science Review. -Austria, 2018. -№ 1-2. -P. 197-200

2. Боиров А., Нуриддинова Х. Типик бўз тупроқлар азот фонди ва таркибий қисмининг лалмикор деҳқончилик таъсирида ўзгариши // Агро илм. -Тошкент, 2016. 1(39). -Б. 54-56.

3. Лавронов Г.А. Основные итоги научно-исследовательской работы отдела агротехники // 50 лет научно-исследовательской работы по богарному земледелию. -Ташкент, 1965. - С.16-30.

4. Мураткасимов А.С., Гафурова Л.А. Лалмикор типик бўз тупроқлар шароитида турли маъданли ўғитларни қўллаш самарадорлиги // Ўзбекистон аграр фани хабарномаси. -Тошкент, 2018. -№ 1(71). -Б. 7-9

5. Синягин И.И. Агротехнические условия высокой эффективности удобрений. Москва. Россельхозиздат. 1980. - 221 с.

6. Соколов А.В. Агрохимия фосфора. Москва. 1950. - 159 с.

7. Федотов П.И., Абсалямов Р., Павлова А.И. Обоснование норм азота и фосфора в подкормку под пшеницу на богаре Узбекистана // Вопросы биологии, селекции и агротехники зерновых, зернобобовых и кормовых культур. Труды УзНИИ зерна. вып. 14. -Ташкент, 1978. -С. 93-101.



O'RTA ARNAWLÍ TA'LIM MEKTEPLERINDE SÍZÍW PÁNIN OQÍTÍWDA DIDAKTIKALÍQ OYÍN TEXNOLOGIYALARÍNAN PAYDALANÍW

Karimov Islam Ametbaevich

**“ Ústyurt Gaz Ximiya kompleksi”, Polipropilen islep shigariw tsexi,
sùwret-dekorativ qa'nigesi Tel: +99893 779 19 91**

Annotatsiya: Mektep jasinda jas àwladlardi tárbiyalar ekenbiz, biz olardiń kòz qarasin sirtqi ortalıqqa tásirin, biyparwa qilmastan òsip baratırǵan sana sezimin rawajlandiriw basli waziypamiz. Àlbette bunda oqiwshi jaslarimizdiń sabaq waqtında kerek maǵliwmatti toliq etip sindirip aliwlari qiyinlasiwlari, sabaq kestesi aqirǵı sabaqlarǵa qoyiliwi mashqala. Mashqalaǵa sheshim sipatında didaktikalıq oyın texnologiyalarinan paydalaniwdi usinip òtemiz.

Kalit so'zlar: Oyın qaǵıydalari, sabaqliqqa àste aqirin kiritiwi, oyınlardıń kelip shiǵiwi, sabaqta oyinniń axmiyeti, nàtiyjeli paydalaniwi, sipati kòrsetkish dàrejesi.

Málimki, balalar tınısh otırmaydılar, olar bárqulla hárekette boladılar, yaǵnıy oynaydılar. Oyın balalardıń tábiyǵıy joldası bolıp, olarǵa álem-álem quwanış keltiredi. Balalar oyınlar arqalı dúnyanı, yaǵnıy dógerek-átirapti úyrenedi, usı menen bir qatarda málim dàrejedegi tárbiyanı hám aladı. Oyın arqalı miynet qılıwǵa úyrenedi. Oyın dawamında óziniń súygen qahramanı obrazına kiriwi, ózinde haqqanıyılıq, ótirik sóylemeslik, zeyin ótkirlik, shaqqanlıq, kúshli bolıwlıq, shıdam beriw, tez tapqırlıq, jeńiske erisiwge umıtılıw sıyaqlı páziletlerdi tárbiyalaydı.

Oyın qaǵıydalları ásirler dawamında xalıq tárepinen nızamlastırılıp olardıń tárbiyalıq áhmiyetine kóbirek itibar berilgen.

Ulıwma alǵanda, oyındı bóbek baladan tartıp ǵárrıǵa shekem oynawı múmkin. Oyınlardı adamlar óz jasına qarap tańlaydı. Jas balalar kóbirek háreket penen baylanıslı oyınlardı tańlaydı. Olardıń ósiwi, ulǵayıwı bunı talap qıladı. Jası úlkeygen sayın adamlar áste-sekin kóbirek pikir júritetuǵın oyınlardı tańlaydı.



Hár qiyli oynlardın kelip shıgıwı xalıq pedagogikasınıń deregi bolıp, oqitiwshilar sabaq beriwı protsessinde usı oynlardın bázı elementlerinen paydalaniwları tiyis.

Oqiwshilardıń joqaridağı pázıyletlerin úyrenip, sızıw sabaqlarına oyın elementlerin kiritiw lazim. Dástúriy sabaq protsessinde oqiwshilardi zerigiwlerin, sharshawın seziw menen oqitiwshi 5-6 minutlıq temag'a baǵishlang'an oyın ótkeriwi tiyis. Sızıwdan ótkeriletuǵın hár bir oyın ózine tán dóretiwshilik jandasiwdı talap qiladi. Bul jerde oqitiwshi klastaǵı barlıq oqiwshilardıń diqqatin ótkeriletuǵın qisqa múddetli oyınsha tartıwdı biliwi úlken áhmiyetke iye. Oyınsha oqiwshi aktiv qatnasıwǵa, pikir júritiwge, oylawǵa bolǵan háreketleri olardıń pútin sezimlerin iske saladı. Oynlardın qiziqarli hám janli ótiwi kóp tárepinen oqitiwshiniń sheberligine baylanıslı esaplanadi.

Eger oqitiwshi balalar psixologiyasına tán jol tutıp, olar menen oynasa, yaǵnıy olardıń jasına mas bolǵan oyın elementlerinen paydalansa, joqari tayipali sızıw oqitiwshilarınıń aytiwinsha, hár bir sabaq kishi-kishi oyınlardan quralǵan bolsa, álbette sabaq janli, qiziqli, ónimli ótedi.

Didaktikalıq oyınlar ápiwayıdan áste-aqirin quramalastirilip dúzilgen bolıwı, oqiwshilardıń aqiliy xizmetin aktivlestiriwge mólsherlengen bolıwı tiyis. didaktikalıq oyınlar arqalı oqiwshilarda tómendegi xizmetlerdi rawajlandiriwǵa itibar qaratiladi :

- áste –seykinlik túrli didaktikalıq máselelerdi kiritiw joli menen aqiliy xizmetindegi jaqsi ózgerislerin qalıplestiredi;
- aqiliy xizmetinde oyınǵa bolǵan qizigiwin rawajlantiradi ;
- bir oyın shegarasında qatar aqiliy máseleler jiyindisin óstiredi;
- barlıq oynap atırǵanlardıń sezimlik hám intellektuwallıq sezimlerin bir maqsetke baǵdarlaydi;
- oqiwshilarda tártiplilik. shólkemlestiriwshilik, maqsetke umıtılıwshılıq sezimlerin baǵdarlaydi.



Bunday mashqalalardi jańa dárejede qabil qılıw oqıwshılar sanasında kóplep kelip atırǵan turli xabarlardi síndire aliwına alip keledi.

Oqitiw protsessiniń sipati hám nátiyjeligin asiriw máselelerdiń tiykarin oqıwshılardıń qabil qılıw xızmetin aktivlestiriw quraydi. Oqıwshılardıń qabil qılıw xızmetin rawajlantiriw intellektual, ádep-ikramlılıq, erkinlik, fizikalıq kúshlerin óz xızmetindegi anıq talaplardi qandiriwǵa jollaydi. Aktivliktiń ózi insan xızmetin anıqlaydi.

Oqıwshılardıń qabil etiw aktivligin asiriw printsipiniń didaktikalıq kontseptsiyaları jańa máselelerdi islep shıǵıw hám jolların anıqlaw, usı éngiziw faktorları menen baylanıslı. Soǵan kóre oqıwshılardıń qabil qılıw qábiletin aktivlestiriwdiń didaktikalıq faktorları kontseptsiyasin sızıwdan ótkeriletuǵın didaktikalıq oynılar arqalı ámelge asiriw maqsetke muwapıqdir.

Didaktikalıq oynılardıń mazmunı hám ótkeriw formaların qalıplestiriw joli járdeminde qabil qılıw xızmetin rawajlandiriwǵa kórsetilip atırǵan ta'sirin úyreniw arqalı zamanagóy talaplarǵa juwap beretuǵın oqitiw metodikalıq jańadan islep shıǵıw múmkin. Bayan qilingan maqset hám usınıslardi ámelge asiriw ushin qatar menshikli máselelerdi sheshiwge tuwri keledi.

-Didaktikalıq oynılar arqalı oqıwshılardıń qabil qılıw xızmetiniń aktivligin tiykarlap beriw;

-oqıwshılardıń qabil qılıw xızmetiniń aktivligin asiriw ushin mazmunı hám formaların rawajlandiriw metodların anıqlaw;

-oqıwshılardıń qabil qılıw xızmetiniń aktivligin asiratuǵın protsesslerde oqitiwshiniń tipik qıynalıwi xızmetin ashıp beriw;

-oqıwshılardıń qabil qılıw xızmetiniń aktivligin asiratuǵın shárayatlardi oynılar arqalı anıqlaw hám úyreniw ;

- oynılar dáwirinde qoyılǵan maqset hám waziypalardi anıqlap úyrenilgennen keyin oqıwshılardıń qabil qılıw xızmetiniń aktivligin asiriwǵa bolǵan didaktikalıq talapların islep shıǵıw;



-aniqlangan tabis ham kemshiliklerdi uyrenip, kemshiliklerdi saplastiratuvin metodikalik islenbeler jaratiw hamde tabislarqa teoriyalik model duziw.

Ortaqa taslanip atirgan didaktikalik oynlardin tabisi sonnan ibaratki, shart bir qoyilgan sorawqa beriletuvin juwap shaxstin individuwal pikir juritiwge majbur qilwi.

Didaktikalik oynlar protsessinde shaxstin oz betinshe pikir juritiwine, salistiriwqa uyrete alinsa. Ken'islik oylaw qabilete janede osedi sonda, oqiwshilardin basqa panleri ham joqari darejede ozlestiriwlerine mumkinshilik jaratilg'an boladi, yagny :

- oqiwshilarga jana bilimlar aliwqa bolgan qizig'iw qaliplestiriwge erisiledi ;
- oqiw xabarlarin ozlestiriwde uliwma ham menshikli qaliplestiriwge erisiledi ;
- oqiw xabarlardi ozlestiriwde uliwma ham menshikli korinislerdegi maselerdi sheshiwde doretiwshilik pikirlewge alip keledi ;
- algan bilim ham konikpelerin jana sharayatqa maslastiriwqa uyretiledi;
- har bir oqiwshinin qabil qilw qabileti xizmetine maksimal sharayat jaratilgan boladi.

A'debiyatlar:

1. Rahmonov, A. Valiyev. B. Valiyev va boshqalar Chizmachilikni o'qitishda pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2012



TASVIRIY SAN'ATDA MAVZULI PLAKATNING AHAMIYATI

Jumabyoev Nabi Pardaboyevich

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

nabi_jnp@mail.ru +998996421785

Zulpanov Akbar Maxmudovich

Sirdaryo viloyati, Sardoba tumani 14-maktab o'qituvchisi

Telefon: +998(93)3288794

Annotatsiya: tasviriy san'atda plakat san'ati va mavzuli plakatlar, ularning turlari, kundalik turmushdagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: plakat, grafik tasvir, chiziq va kontur, eskiz, badiiy bezak, afisha, ornament, obraz.

Plakat - (nemischa: plakat fransuzcha: plagard - e'lon, afisha - yopishtirish, yelimlash) - tomoshabinga tezda ta'sir etuvchi bir necha ranglar ishtirokidagi grafik tasvirdir. Plakat san'ati tasviriy san'atning boshqa turlaridan mavzuning o'tkirligi, dolzarbligi va ranglar yorqinligi bilan ajralib turadi. Plakat san'ati grafika kabi refleksi, "Poluton" qora bo'yoq va oq qog'oz bilan soya yorug'ni ifodalaydi, shakllanadi. Bunda asosan oq va qorani kontrastlar chiziq va kontur muhim rol o'ynaydi. Plakat asosiy kompozitsiya tasviri va plakat g'oyasini tushintiruvchi tekstdan iborat bo'lib tashviqot va targ'ibot vazifasini o'taydi. Plakat bir qarashdayoq tomoshabinni o'ziga jalb qila olishi kerak. Shuningdek, mazmun va maqsad hamda undagi mavjud matn aniq va tushunarli bo'lishi lozim. Plakat turlari siyosiy, reklama, tashviqot sifatida bo'lishi mumkin. Shu bilan birga plakatni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: 1. Ornament yozuvli plakatda matn asosiy o'rinni egallaydi, qolgan joylari ornament bilan to'ldirilgan bo'ladi. Bunday kompozitsiya yechimi afisha va chaqiriq plakatlarida ishlatiladi. 2. Tasviriy - yozuvli plakatda asosiy o'rinni mavzuli tasvir egallaydi, matn esa asosiy fikrni amaliy ifodalaydi. Asosiy vazifa tarzida amaliy mashg'ulot uchun uncha qiyin bo'lmagan ornament, matn, chaqiriq, plakat eskizini misol qilib keltiramiz. Badiiy bezak amaliyotida ko'pincha mehnat jamoalarining hayoti va yutuqlarini aks ettiruvchi mavzudagi plakatlar bajariladi. O'qish jarayonida olgan bilimlar asosiy mahalla yoki jamoa uchun "Navro'z" nomli mavzuga bag'ishlangan afishaga o'zbek milliy ornamentlar va gullarning tasvirini "Hosil bayrami" kuni uchun plakatda misol tariqasida paxta, meva va sabzavotdan iborat ornament kompozitsiya echimi tavsiya etiladi. Turli bayramlar, yubiley marosimlari saylovlarga bag'ishlangan plakatlarda chaqiriq matnlari, ornament, emblema, gerb, lavr barglari bilan bezatilgan plakat kompozitsiyasini eskizi bajariladi. Plakat kompozitsiya eskizini dastlab bir necha kichik varaqlarda yengil chizmalar bilan tasvir va tekstni yaxshi idrok etgan holda xomaki eskizlar bajarish lozim. Eskizni bajarish jarayonida asosiy fikrni mazmun va g'oyalarga soya va yorug' "kontrast" ranglarga, qaratiladi. Xomaki eskizlarda kompozitsiya va rang echimi topilgandan so'ng yakunlovchi plakat eskizini 30x40 sm hajmda guashda bajarish mumkin. Chunki guash bo'yog'i bezak ishlari va plakat ishlari uchun juda qulay. Siyosiy tasviriy plakat eskizini bajarishda asosiy o'rin tasvirga beriladi, tekst esa unga yordamchi, vosita bo'lib qoladi. Misol uchun A.Balkanovning "Gulla hur O'zbekiston" nomli plakatini misol keltirish mumkin. Quyosh nurlari fonida O'zbekiston Respublikasi gerbi, bayrog'i tasvirlangan. Plakat orqali mehnatkash xalqning kelajagi ulug' va porloq ekanligini o'qish mumkin. Shuning uchun plakat san'ati rassomdan professional mahorat, estetik madaniyatni talab qiladi.

Tasviriy san'atning ommaviy va ommabop bu turi hammaga tanishdir. U bilan har qadamda har kuni uchrashamiz. Masalan, shahar va qishloq ko'chalarida, zavod sexlarida, o'quv dargohlarida, maktablarda va qurilishlarda sergaklikka, intizomga va hushyorlikka,



go'zallikka, ma'naviyat va ma'rifatga chorlovchi surat-yozuvlarga ko'zimiz tushadi.

Har qanday ko'zga tashlanarli voqea hech qachon plakatchi-rassomning nazaridan chetda qolmaydi va shu bois ham plakatning mavzusi, shubhasiz turli-tumanligi bilan ajralib turadi: Ular, asosan ommabop-siyosiy mazmundagi, targ'ibot, chaqiriq xarakteridagi, o'quv-uslubiy plakatlar yoki informatsion-reklamali plakatlar tipidabo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Oripov. Tasv iriy san'atni o'qitish uslubiyoti. N.: 2001 y. (qo'llnma)
2. I.Jaborov. Rangshunoslikka oid ayrim atama va iboralarning izohli lug'ati. T.: 2001y
3. R.Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'rgatish metodikasi. T.: 2004 y.



TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA AXBOROT KOMMUNIKASION TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Kamolov Firdavs Mirziyayevich - Xovos tumani 1-maktab tasviriy san'at fani o'qituvchisi
Tel nomer:+998915017878

Mamadaminova Shoira Mirzayevna - Xovos tumani 12-maktab tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada maktabdagi ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan, darsda slaydlardan ko'rgazmali material sifatida foydalanish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tasviriy san'at darslarida yangi pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, axborot texnologiyalari yordamida bilim olishni rivojlantirishi haqida qisqacha yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim jarayoni, axborot kommunikasion texnologiyalari, multimedia, elektron darslik, elektron taqdimot.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Tasviriy san'at" fanining o'qitilishi o'quvchilarning jismoniy, aqliy, ahloqiy, ruhiy, ma'naviy - ma'rifiy, estetik jihatdan tarbiyalanishining bosh omili hisoblanadi. O'quvchilarga tasviriy san'at darslarida faqatgina rasm solish sir-asrorlari o'rgatilibgina qolmasdan, ularga milliy qadriyatlar, ma'naviy me'roslar, milliy bayramlar, milliy marosimlar, tarixiy voqealar, hodisalar, me'morchilik obidalari, ulardagi bitiklar, yozuvlar, sharq allomalarining ma'naviy me'rosi haqida ham tushunchalar berib boriladi.

Yoshlar tarbiyasiga jiddiy e'tibor kerak bo'layotgan bir davrda har bir fanning o'qitilishi va darsdan keyingi mashg'ulotlarni samarali tashkil etishga alohida e'tibor qaratish zarur bo'lmoqda. Chunki maktab bolalarning eng sevimli maskani, bola uyidan chiqqach maktabga boradi, o'rtoqlar orttiradi, sevimli ustoz bilan suhbatlashadi. Dars jarayonida turli fanlarni o'rganish orqali hayotda bo'layotgan voqea va hodisalarga nisbatan qiziqishi ortadi.

O'quvchini ilk maktabga borgan chog'idanoq har bir fan o'qituvchisi uning qiziqishlarini, imkoniyatini, iqtidorini, har bir fanga bo'lgan qiziqishini inobatga olib mashg'ulotlarni olib boradi. Maktablarda olib borilayotgan tasviriy san'at darslarida o'quvchiga tasviriy san'at, san'atga bo'lgan ilk uyg'onishlar tarbiyalanadi, o'quvchilardagi iqtidor, qobiliyat shakllantiriladi va rivojlantiriladi. O'quvchilarga tasviriy san'at darslarida, tasviriy san'atni turlari (grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik, dekorativ amaliy san'at), janrlari (natyurmort, manzara, portret, tarixiy, batal, animal, maishiy, turmush, morinistik, afsonoviy), o'zbek milliy amaliy san'ati turlari (kashtachilik, kulolchilik, o'ymakorlik, zarduzlik, zargarlik, pichoqchilik, beshiksozlik, to'qish san'ati, misgarlik, kandakorlik, tosh-taroshlik) haqida, uning ustalari ijodi haqida va shu san'atlarni amalda bajarish ishlari haqida tushunchalar berib boriladi. Ushbu san'at turlari va janrlari haqida tushuncha berishda axborot kommunikasion texnologiyalaridan foydalanish juda katta yordam beradi.

Xozirgi kunda mashg'ulotlarni tashkil etish uchun zamonoviy sinf xonalari, jihozlar, kompyuter sinflar, sharoitlar yaratilmoqda. Buning barchasi ta'lim samardorligini oshirish, yoshlar tarbiyasiga e'tiborni oshirish va ularni har xil oqimlarga kirib ketmasligi oldini olish

uchun xizmat qiladi. Tasviriy san'at darslarini olib borishda ham kompyuter texnologiyasidan foydalanish darslar mazmundorligini oshirishda ko'maklashadi. Tasviriy san'at ta'limi mashg'ulotlarini olib borish uchun ta'lim resurslari yetarli degan savol tug'iladi.

Tasviriy san'atdan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning bo'sh



vaqtlaridan unumli foydalanihsiga xizmat qiladi. Aynan tasviriy san'at fanidan mashg'ulorlar uchun elektron versiyalar alohida ishlab chiqilishi zarur va shart. Umumta'lim maktablarida mashg'ulotlarni olib borish uchun rassomlar ijodi, ko'rgazma zallari, ko'rgazmalar haqida elektron tasvirlar, vedeolar bor lekin hozirgi globallashuv jarayonida bu jihozlar mashg'ulotlarni olib borish uchun etarli emas.

Tasviriy san'at darslarini mazmunli olib borish uchun uning turlari, janrlari, yo'nalishlaridan kelib chiqib elektron ovozli tasvirlar yaratilsa, tasviriy san'at ta'limi sohasining o'qitilishiga katta yordam beradi. Chunki tasviriy san'at fani mashg'ulotlari maktab, maktabdan tashqari ta'lim, "Barkamol avlod bolalar markazi" to'garaklari, "Bolalar musiqa va san'at maktabi" yo'nalishlarida "Ustoz - shogird" usulida olib borilib, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishlariga yordam beradi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni olib borishda aynan tasviriy san'atga doir milliy san'atimiz bilan bog'lik elektron versiyalar yaratilib etkazib berilishi zarurdir.

- har bir viloyatda joylashgan tarixiy obidalar (Toshkent, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Farg'ona, Marg'ilon kabi shaharlarda joylashgan har bir me'moriy obidalar haqida alohida) chiroyli nutq bilan ovozli tasvirga olingan filmlar yaratish;

- milliy amaliy san'atning turlarining bajarilish jarayoni tasvirlari (alohida, ovozli), dekorativ amaliy san'at namunalridan lavhalar;
- o'zbek va chet el rassomlarining asarlari ko'rgazmalarining ovozli tasvirlari;
- rassomlar bilan olib borilgan suhbatlarning ovozli kino tasvirlari;
- bo'yoqlarning tayyorlanish jarayoni, ular bilan ishlash, bo'yoqlarni aralashtirib yangi

ranglar hosil qilish jarayonlari tasviri, rangtasvir san'ati ustalari ijodi tushurilgan tasvirlar;

- haykaltaroshlik ishlari;
- Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyingi qurilish ishlari, me'morchilik ishlaridan lavhalar;
- bolalar tomonida chizilgan rasmlar ko'rgazmasi tasvirlari;
- tengdoshlari ijod jarayoni tasvirlari;
- viloyat markazlari, tumanlarda joylashgan san'atga oid maktablarida olib borilayotgan san'at yo'nalishi ishlaridan lavhalar;
- har bir tasviriy san'at turi, janri, ustalari ijodidan ovozli filmlar yaratilib maktablarga yetkazib berilishi maktablarimizda olib borilayotgan dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bunday yaratilgan ko'rgazmalar nafaqat dars mazmunini boyitadi, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarida san'atimiz, madaniyatimiz, tariximiz bilan chuqur tanishishlari uchun imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, o'quvchilarning texnikaviy jarayonga bo'lgan qiziqishlari oshadi, ular san'at va madaniyatdagi o'zgarishlarni ko'rib o'zlari ham yaratuvchanlikka intiladilar.

O'quv ma'lumotini qabul qilishda o'quvchilarning qanchalik ko'p his - tuyg'ulari qatnasha, shunchalik o'zlashtirishi tezlashadi. Bu imkoniyatni multimediali ko'rgazmali ta'lim amalga oshiradi.

Multimediali darslar quyidagi didaktik masalalarni hal qilishga yordam beradi:

- fan bo'yicha asosiy bilimlarni o'zlashtirish;
- o'zlashtirilgan bilimlar izchilligini ta'minlash;
- o'z - o'zini nazorat ko'nikmasini shakllantirish;
- bilim olishga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirish;
- o'quvchilarni o'quv materiali ustida mustaqil ish olib borishlarida o'quv - metodik yordam ko'rsatish.



O'quv topshiriqlarini multimediali vositalar yordamida o'quvchilarga taqdim etish bir qadar qulayliklar tug'diradi. Chunki multimediali vositalar o'quvchilarning mustaqil faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Har bir o'quvchini o'qituvchi hamda sinfdoshlari bilan muloqotga kirishish, hamkorlik qilishga undaydi.

Ilmiy tadqiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, axborot kommunikasiya texnologiyalari o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiya tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli tarzda saqlanishi o'quv materialini boyitib, uning o'zlashtirilishiga yaqindan yordam beradi.

Axborot - kommunikasiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad - aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlari yangi turlarining paydo bo'lishidir.

Xulosa qilib aytganda, darslarni - o'quv tarbiya jarayonini yangi zamonaviy, yuqori darajadagi yutuqlarga suyangan holda didaktikaning so'nggi texnologiyalari asosida tashkil etishga harakat qilish kerak. Bunday darslar-o'quv materiallarini tez va oson o'zlashtirishga imkon beradi. Kompyuterda darslar maxsus dasturlar bilan ta'minlansa o'quv jarayoni samarali kechadi.

Foydalangan adabiyotlar.

1.Abdurahmonov Sh. Rangshunoslik. o'quv qo'llanma. NamMPI nashri, Namangan, 2007

2.Abduqodirov A, Xaitov A, Rashidov R. Axborot texnologiyalari.-T.: "O'qituvchi", 2002

3.Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standartlarini amaliyotga joriy etish. O'qituvchi va xalq

ta'limining boshqa xodimlari uchun metodik tavsiyalar.-T: O'zPFITI, 2000 y.

4.Egamberdiev, Hasanov, Abdullaev, Mujdatov. Rasm chizish va uni o'qitish metodikasi.

5.Internet ma'lumotlar.



TASVARIY SAN'AT DARSLARIDA DIDAKTIK PRINTSIPLARINING QO'LLANILISHI

Karimova Zarina Olimjanovna,
Namangan shahar 2-maktabning 2-toifali tasviriy san'at o'qtuvchisi Zarina
Karimovamaktab@gmail.com
TEL:90-597-34-47

Annotatsiya

Tasviriy san'atni o'qitish jarayonida qo'yiladigan topshiriqlar o'quvchilarni birdan bir va betakror o'z shaxsini, aqliy imkoniyatlarini namoyon etishga yo'llaydi. Bolalar o'quv topshiriqlarini yechishda o'zlarini ijodkor bo'lishga undaydilar.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, ijodkor, tafakkur, natura, tasvirlash, bilim, malaka

Umumiy o'rtata'lim maktablaridatasviriy san'at darslarini didaktikprintsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at o'quv fanini o'qitishning maqsadi: o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirish, badiiy tafakkurni yuksaltirish, estetik va emotsional sezgirlikni o'stirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan bilimlarni egallash, ulardan kundalik hayotida foydalanishga o'rgatishdan iborat. Davlat ta'lim standartida tasviriy san'at ta'limi mazmuniga bo'lgan majburiy minimum talablar bayon etilgan. Bolalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish, ko'rish xotirasi, shakllarni idroklash, rang sezish, kuzatuvchanlik va tasvirlash ko'nikmasini hosil qilishda tasviriy san'at mashg'ulotlarining o'rni g'oyat kattadir. Bu o'quv fani inson aql-idrokining hamda uning tevarak-atrofini, undagi voqea-xodisalarini bilish hamda uni o'zgartirish yo'llarini o'rgatadi. U ijodiy iqtidorni shakllantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Tasviriy san'atni o'rgatish jarayonida uning oldiga qo'yiladigan topshiriqlar esa bolalarni o'z shaxsini, ma'naviy imkoniyatlarini namoyish etishga sharoit yaratadi. Ma'lumki, maktab tasviriy san'atning dars mashg'ulotlari besh turdagi mashg'ulot xarakterida, yoki texnologiyada amalga oshiriladi. 1. Narsani o'ziga qarab rasm ishlash. 2. Tematik kompozitsiya ustida ishlash. 3. Dekorativ amaliy - bezak san'ati. 4. Haykaltaroshlik ishlari. 5. San'atshunoslik asoslaridan tashkil topgan mashg'ulotlari turlarida olib boriladi. Bu darsning dars texnologiyasi bir mazmunda bo'lsada, ulardagi ta'lim berish texnologiyasi albatta bir - biridan farqlanadi. Ya'ni "narsani o'ziga qarab rasm chizish" mashg'ulotlarida naturadan, ya'ni buyumni o'zini ko'rib, undan shaklni imkoniyati boricha naturadan tasvirlanadi. Tematik kompozitsiyada esa o'quvchilar o'ylab - o'ylab, uzoqlarga qarab nimalarnidir esga olish asosida rasm chizadilar. Haykaltaroshlikda esa, qalam - bo'yoq bilan emas, loy - plastilin bilan, oz bo'lsada jismoniy mehnat vositasidagi mashg'ulotlar texnologiyasi mashg'ulotning asosi bo'ladi. Maktab tasviriy san'ati bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilim - malakalar didaktikani tarbiyaviylik printsipigaamal qilingan holdaolib boriladi. Chunki maktab tasviriy san'ati o'quv predmeti o'quvchilarni badiiy - ahloqiy, estetik, mehnatga, o'z halqiga, Vataniga, ota - bobolar ijodiga katta xurmat bilan qarashga o'rgatadi. Yana maktab tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasi va didaktikasi talabiga ko'ra har bir dars - o'quvchilarga berilayotgan bilim va malakalarini shu darsni o'zida amaliyotida qo'llash imkoniyatiga ega bo'lib, darsni asosiy qismida berilgan yangi bilim va ma'lumotlar asosida rasm chizish amaliyoti bajariladi. Bu fanni mazkur imkoniyati va shart - sharoitiga ko'ra uning dars texnologiyasida ijodiy o'zgarishlar namoyon bo'ladi.

Yanatasviriy san'atni o'qitishdag'oyat ahamiyatgamolik bo'lgan didaktik printsip - o'quvchilarning tasvirlash qobiliyati, bilimi, malakasiga mos holda o'qitishga shart - sharoit vaimkoniyatlarini yaratishdan iboratdir .Bu printsip o'quvchilarning barchani rasm ishlashga va tasvirlar yaratishga jalb qilish imkoniyatini beradi. Maktab tasviriy san'at



bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilim, malakalarini ijodiy, faol, mustaqil va tashabbuskorlik asosida bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarga beriladigan tasviriy san'at bo'yicha bilim malakalarini oson, qisqa, tushunnarli, ilmiy asosda bo'lishini ta'minlashda didaktikani ko'rgazmali o'qitish - ta'lim berish texnologiyasida eng asosiy didaktik printsiplarni sanaladi. Maktab tasviriy san'atining Davlat dasturi bo'yicha o'quv materiallarining hammasi ko'rgazmali o'qitishni talab qiladi. Chunki, - "Maktabda ko'rgazmasiz o'qitib bo'lmaydigan yagona o'quv fani bu tasviriy san'atdir" - deb doimo ta'kidlanishi ham bejiz emas. Shuning uchun maktab tasviriy san'atini o'qitish - texnologiyasida ko'rgazmalilik - oldin belgilangan maqsadga erishishni kafolatlay oladigan didaktik printsiplarning eng asosiysi va eng samaralisi sanaladi.

Tasviriy san'at o'qituvchisi shuni tushinishi kerakki, o'quvchilar borliqdagi narsalarni chizish jarayonida ularning faqat tashqi ko'rinishigina emas, balki uning ma'lum qonuniyatlariga asoslangan ichki tuzilishini ham bilib olishlari talab etiladi. Ko'p hollarda bu qonuniyatlarni bilmaydigan o'quvchilar buyumlarning shaklini to'g'ri tasvirlashda yanglishadilar. Ko'rgazmalilik printsiplari tasviriy san'atni o'qitishda borliqdagi narsa va xodisalarning mohiyatini bilishga, uning xarakterli xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganishga ko'maklashadi. Ko'rgazmalilikning ikki turi mavjud: 1.Tabiiy ko'rgazmali qurollar. 2.Tasviriy ko'rgazmali qurollar. Tabiiy ko'rgazmali qurollarga shakli, rangi, tuzilishi tabiiy bo'lgan buyumlar (meva va sabzavotlar, turmush buyumlari, o'quv qurollari, amaliy san'at buyumlari va h.k.) ni kiritish mumkin. Tasviriy ko'rgazmali qurollarga rasmlar, tablitsalar, hayvon va qushlarning turkumlari, suratlarning reproduksiyalari, geometrik gipsli shakllar, pedagogik rasmlar, fotografiya va boshqa sun'iy usul bilan tayorlangan tasviriy vositalar kiradi.

Xulosaqilib aytganda, o'qitishning o'quvchilar yoshiga mosligi printsiplari qadimdan qo'llanib kelingan. Yuqoridagi fikrlardan maktabda tasviriy san'atdan dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida didaktik printsiplarga rioya qilishning nihoyatda muhimligini sezib olish qiyin emas. Didaktik printsiplarni o'quvchilarning badiiy ta'limi, tarbiyasi va rivojlanishiga tegishli shart-sharoitlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Hasanov. Tasviriy san'at asoslari. -T.: TDPU, 2008 y.
- 2.B.Oripov.Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi.N.2007 y.
3. O'zbekiston zamonaviy san'ati. Modern art of Uzbekistan. -T.:2004 y.
- 4.R.Hasanov. S.Beysenov. O'qituvchilarni tasviriy san'atdan bilim va malakalarini o'zlashtirishni nazorati. T. 2008 yil.



ҲУДУДАГИ БУГУНГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТ - ТАЪЛИМ-ТАРБИЯНИНГ АСОСИЙ НЕГИЗЛАРИДАН БИРИ СИФАТИДА

**Муҳаббатхон Комилова,
Андижон вилояти Олтинқўл туманидаги
11-умумтаълим мактабининг
биология фани ўқитувчиси
Тел: +998 90 2173206**

Аннотация: мақолада экология муаммолари ва озиқ-хавфсизлиги масалалари биология дарсларининг асосини ташкил этиши хусусида фикр юритилган.

Калит сўзлар: коронавирус, экология, касаллик, табиат, мувозанат, биологическая лаборатория.

Бугун бутун дунёни катта хавф остида қолдираётган коронавирус пандемияси Ер юзидаги қарийб барча мамлакатларни ижтимоий-иқтисодий муаммолар гирдобига тортганлиги сир эмас. Бунинг ортидан одатдаги ҳаёт тарзимизни ўзгартиришга мажбур бўлдик. Жумладан, Ўзбекистонда ҳам барча соҳалар қатори турли босқичдаги таълим муассасалари фаолияти онлайн режимга ўтказилди.

Жумладан, мамлакат умумтаълим мактабларида ҳам марказий телевидение орқали онлайн сабоқлар ташкил этилиб, ўқувчилар билан бирга барча ўқитувчилар ушбу жараёнга жалб этилдилар. Айтиш жоизки, масофавий таълим дунёнинг ривожланган давлатларида аллақачон жорий этилган бўлиб, онлайн дарснинг одатдаги дарс сабоқларидан фарқли, афзал жиҳатлари ҳам бор.

Биринчидан, онлайн таълимда ўқитувчи ҳам, ўқувчи ҳам вақтдан ютади. Иккинчидан, ўқувчининг ўз устида кўпроқ ишлаб, изланиш зарурати эҳтиёж сифатида юзага чиқади. Ва ниҳоят, учинчидан, онлайн дарсларда ўқувчи мавзунинг бирор тушунмаган жиҳатини қайта сўраш имконияти чекланганлиги сабаб экран қаршисида зийрак ва хушёрроқ ўтиришга ўрганади. Демак, бунда бора-бора ўқувчида лоқайдлик ўрнини иштиёқ ва лаёқат, устознинг маъруза ва фикрларини тез илғаб олиш фазилати шакллана боради.

Айни пайтда Ўзбекистон телеканаллари орқали намойиш этилаётган масофавий дарслар нафақат ўқувчиларга, шунинг баробарида биз - педагогларга ҳам ўз устимизда ишлаш ва изланишимизга туртки берапти. Чунки ТВ орқали эфирга узатилаётган онлайн сабоқларни очиқ семинар тарзидаги дарс сифатида ҳам қабул қилиш мумкин ва бу мамлакат ўқитувчиларининг тажрибасини оширишга, муаллимларнинг ўзининг дарс ўтиш жараёнидаги айрим хато-камчиликларини тўлдириб боришига, замонавий методларни ўзлаштириб боришларига хизмат қилади.

Энди юқоридаги жараёнлар юзага келишига бевосита сабаб бўлган коронавирус мавзусига қайтсак. Кимлардир ушбу касалликни ёввойи ҳайвонларни истеъмол қилишдан келиб чиққан деб айтишмоқда. Бир гуруҳ тиббиётчилар сунъий равишда яратилган вирус деб тахмин қилишяпти. Айрим олимлар эса биологик қурол деган тўхтамга келишган.

Нима бўлганда ҳам, бир нарса аниқ - ушбу касаллик кўп жиҳатдан инсониятнинг глобал экологик муаммолар юзага келишига сабаб бўлаётгани, табиатдаги мувозанатнинг бузилганлиги билан узвий боғлиқ.

Эътибор беринг, мутахассислар ҳар ярим соатда қўлларни совунлаб ювиш ҳақида қайта-қайта уқтиришяпти. Аслида ҳам бугунги экологик вазият шу даражага етиб келдики, одамларнинг ўсимликлар ва сув ости дунёси, ҳайвонот оламига



нисбатан беписанд муносабати, саноат корхоналари сонининг ортиб бориши, автомобиллар ҳаракатидан пайдо бўлаётган заҳарли моддалар - буларнинг барча-барчаси бирлашиб, атмосферада инсон ва ҳайвонот дунёси учун турли зарарли бўлган, кўзга кўринмас зарралар кўпайиб бормоқда. Бу ҳолат эса коронавирус ва бошқа юқувчан касалликларнинг одамлардан бир-бирига ўзаро ўтиб боришини тезлаштиради, холос.

Юқоридаги масалалар биология фанига, биологлар фаолиятига бевосита боғлиқ бўлганлиги учун ҳам айни пайтда телеграм гуруҳлари орқали олиб борилаётган дарсларда ўқувчиларга ушбу жиҳатлар хусусида баҳоликудрат кенгроқ тушунча ва тасаввур беришга интилиши, назарий билимларни Андижон вилоятидаги бугунги экологик вазият мисолида тушунтиришга ҳаракат қилиши зарур.

Биргина мисол. Яқинда Андижон вилояти ҳокимлигининг телеграмдаги расмий каналига бир маълумот жойланди. Қаранг, Андижонда жами 220 минг 600 донна автотранспорт воситаси бўлиб, 2019 йилда ҳавога қарийб 101,5 минг тонна зарарли моддалар, яъни чанг, азот оксидлари ва ис гази ташланган. Бу кунга 278 тоннани ташкил этади. Карантин муносабати билан автомашиналарнинг кам ҳаракатланиши натижасида эса ҳозирги пайтда кунлик кўрсаткич 36 тоннага тенг келмоқда. Бу эса шу кунларда атмосферадаги зарарли моддалар миқдори 7,5 баробарга қисқарганини англатади.

Соҳа мутахассислари яхши билишадикки, теварак-атрофда яшил майдонлар, дов-дарахтлар, айниқса, чанг-ғуборни ўзига тортиб, ҳавонинг мусаффо бўлишига хизмат қилувчи дарахтлар қанча кўп бўлса, табиий муҳит, атмосфера софлиги шунча яхши бўлади. Шу маънода дарс жараёнларида ҳам ёшларга ушбу масаланинг беқиёс аҳамиятга эга эканлиги жонли, аниқ мисоллар асосида тушунтириб борилиши керак. Шунда ҳар йили кўчат экиш мавсумида ҳар бир ўқувчи атмосфера софлигига туртки берадиган дарахт кўчатларидан ҳеч бўлмаганда бир тупдан эккан тақдирда, бу - табиатни асраш йўлидаги умуммиллий ҳаракатларга дарс сабоқларининг реал, ўзига хос, камтарона ҳиссаси бўлади.

Бу масала нега муҳим?

Эътибор беринг, бугун дунё миқёсида коронавирусга чалинганлар орасида қайси тоифа вакиллари кўпроқ талафот кўрмоқда? Ҳеч шубҳасиз, турли хасталиклар, жумладан, сурункали касалликларга чалинган, нимжон ва заиф тоифадаги фуқаролар.

Турли сурункали касалликлар қаердан келиб чиқади? Жамиятда одамларнинг касалланиш даражаси-чи? Бу саволларнинг жавобини ҳам яна инсон ва табиат ўртасидаги муновазанатнинг бузилиши билан изоҳлаш мумкин. Яъни экология билан боғлиқ вазият мураккаблашгани сари жамиятда касаллик турлари ва беморлар сони ортиб бораверади. Хулоса шуки, инсон ва табиат муносабатлари мактабларда биология ва экология дарсларининг асосини ташкил этмоғи керак.

Дарс жараёнида эътибор қаратилиши зарур бўлган иккинчи жиҳат - озиқ-овқат хавфсизлиги масаласидир. Маълумки, Ўзбекистонда аграр соҳа устувор йўналишларда бири. Давлат ва ҳукумат томонидан мутахассислар зиммасига дон, дуккакли экинлар, пахта, картошка, сабзавот ва полиз маҳсулотлари ҳамда мева етиштиришда ҳосилдорликни мунтазам равишда ошириб бориш вазифаси қўйилади. Бу қандай амалга оширилади? Шубҳасиз, илғор инновацион усулларни амалиётга татиқ этиш орқали.

Шу маънода дарсларда ўқувчиларни мамлакатимизда, хусусан, Андижон вилоятида айни пайтда бу борада қўлланилаётган тажрибалар билан яқиндан таништириб бориш асосий вазифалардан бири бўлиши шарт. Назарияни амалиётга уйғунлаштириш учун эса ҳар бир мактаб ҳовлисида иссиқхона ва биологатория



ташқил этиш, бизнингча, фойдадан ҳоли бўлмайди. Вилоятдаги тажрибали биологатория мудирларини мактаб қошида ташқил этиладиган амалий дарсларга таклиф этиб, улар билан ҳамкорликда ўқувчиларнинг биология фани билан боғлиқ билим ва тасаввурларини кенгайтириш имкониятларини ишга солиш мумкин.

Бу вазифа ҳар жиҳатдан муҳим. Чунки вилоятдаги аксарият хонадонларда томорқа мавжуд ҳамда турли экинлар, резаворлар етиштирилади. Ҳовли шароитида улардан мўл ҳосил олишда эса ўқувчиларнинг фаол иштирокини шу йўл билан таъминлаш, хусусан, уларнинг бошланғич билим ва тасаввурлари орқали турли зараркунанда ҳашаротларга барҳам бериш ва ҳосилдорликни ошириш, бунда биологаторияларда яратилган фойдали ҳашаротлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Юқорида тилга олинган жиҳатлар ўқувчиларга ва жамиятга нима беради? Хулоса ўрнида шуларни айтиш мумкин.

Биринчидан, ўқувчиларни биология фани сир-синоатларига ошно этади, ушбу соҳани яхши ўрганиб, малакали мутахассис бўлишга иштиёқини оширади.

Иккинчидан, олий ўқув юртларининг экология, қишлоқ хўжалиги ҳамда тиббиёт соҳаси билан боғлиқ факультетларида кириш имтиҳонларида рақобат кучаяди, жиддий беллашув юзага келади. Бу йўналишларда соҳага чиндан меҳр қўйган, билимли, келажакда бу йўналишларда ўз ўрнига, билимига эга мутахассислар пайдо бўлишига бугундан замин яратилади.

Учинчидан, жамиятда экологик муаммоларга бефарқлик туйғуси аста-секин барҳам топа бошлайди.

Натижада юқоридаги ҳар уч жиҳат бирлашиб, давлат ва жамият ривожини, халқ фаровонлигини, ижтимоий-иқтисодий тараққиёт учун мустаҳкам пиллапоя вазифасини бажаради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида"ги Қонуни // Олий Мажлис ахборотномаси. 1993 йил, 1-сон.
2. Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби. I жилд. Тошкент - 1998.
3. С. Мухторалиев. "Экологик назоратнинг жамоатчи инспекторлари учун услубий қўлланма". "Chinor ENK" экологик-ноширлик компанияси. Тошкент - 2016.
4. Андижон вилояти ҳокимлигининг расмий телеграм канали.



BESHTA RIVOJLANTIRISH MARKAZLARI.SAN'AT MARKAZI HAQIDA MA'LUMOT.

Kubayeva Mahliyo Nuriddinovna

**Navoiy davlat pedagogika instituti maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi**

MahliyoKubayeva7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada beshta rivojlantiruvchi markazlar ,ularda hozirgi kunda olib boriladigan say'i -harakatlar va bu markazlardan kutiladigan natijalar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Jumladan bu markazlardan biri bo'lgan eng oxirgi markaz ya'ni "San'at markazi" haqida , bundan tashqari "San'at markazi"ning maqsadi,ahamiyati nimalardan iborat ekanligi to'liq yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar madaniyat va san'at markazi,beshta markaz,san'at markazlari,markaz turlari,markazlarning bosqichma-bosqichlilik darajasi.

Biz bilamizki, har bir rivojlantiruvchi markaz o'z maqsadi va yo'nalishiga ega. Ta'limiy materiallar va o'yin anjomlari esa guruh bolalarining yoshiga mos,xavfsiz va ularda qiziqish paydo qila oladi. Rivojlantirish markazlarida to'g'ri tashkil etilgan ish, har bir bolaga o'zi yoqtirgan faoliyat bilan mashg'ul bo'lishga , o'z kuchi va qobiliyatini sinab ko'rishga , kattalar va tengdoshlari bilan birgalikda faoliyat yuritishga , ularning his tuyg'ulari va xatti-harakatlarini tushinish va baholashga imkon beradi.

5ta rivojlantiruvchi markazlar:

- " Qurish yasash va matematika
- " Syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish
- " Til va nutq markazi
- " Fan va tabiat markazi
- " San'at markazi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 14-avgustdagi "Yoshlar madaniyat va san'at markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'grisida"gi 232-sonli qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlar vazirligi,"O'zbeknavo" estrada birlashmasi, O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati ,O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi, "Mahalla" xayriya jamoat fondining "Yoshlar madaniyat va san'at markazi tashkil etildi.

Teatr,konsert va tomosha sahnalari,madaniyat,san'at markazlari,madaniyat va istirohat bog'lari , amfiteatrlar va boshqa madaniy-tomosha muassasalaridan samarali foydalanish hamda joylarda yosh iqtidor egalari va istedod sohiblarini qo'llab-quvvatlash, ularga amaliyordam ko'rsatish chora- tadbirlari ko'rilmoqda.

Mazkur markazning tashkil etilishi mamlakatimiz yoshlari uchun yana bir imkoniyat bo'lib, ularni vatanga muhabbat,mustaqillik g'oyalariga sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalash, yurt ravnaqiga daxldorlik tuyg'usini mustahkamlash,ularning keng qamrovli bunyodkorlik va yaratuvchanlik jarayonidagi ishtirokini kengaytirishda madaniyat va san'atning o'rnini har tomonlama oshirish,shuningdek boy madaniy musiqiy merosimiz, zamonaviy milliy estrada va jahon san'ati durdonalari asosida yuksak badiiy dunyoqarashni shakllantirish hamda yosh iqtidorlarni rag'batlantirish tizimini yanada kengaytirishga xizmat qiladi

2020-yil 6-martda Hukumatning 131-sonli "Toshkent shahrida Zamonaviy san'at markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'grisida"gi qarori qabul qilindi.Qarorga muvofiq, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi huzurida davlat muassasasi



shaklidagi Zamonaviy san'at markazi tashkil etildi.

YOSHLAR MADANIYAT VA SAN'AT MARKAZI

Markazning maqsad va vazifalari:

" Yoshlarni Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalash, yurt ravnaqiga daxldorlik tuyg'usini mustahkamlash, ularning keng qamrovli bunyodkorlik va yaratuvchanlik jarayonidagi ishtirokini kengaytirishda madaniyat va san'atning rolini oshirish ;

" Yosh ijodkorlarning, ayniqsa chekka qishloq va mahallalardagi iqtidorli yoshlarning noyob istedodini ro'yobga chiqarish va ular faoliyatini tizimli ravishda keng targ'ib etish maqsadida turli teleradio, internet loyihalarini tashkil etish va o'tkazish;

" Milliy ashula va musiqa merosi, zamonaviy, milliy Estrada va jahon san'ati durdonalari asosida yoshlarda yuksak badiiy didni shakllantirish;

" Umidli ijodkor va iqtidorli yoshlarni izlab topish, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

" O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, madaniyat va san'at borasida yoshlarning intilishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida konsert, festival, ko'rik-tanlov va turli madaniy shou-tomosha tadbirlarini o'tkazish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

"Hasanboyeva. O.U "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" , Ilm ziyo nashriyoti

Toshkent 2006-yil

"Shodmonova Sh. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" , Fan va texnologiya nashriyoti
Toshkent-2018



RANGLARNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI:

Siz qaysi rangni sevasiz?... Yoki aksincha qo'rqasiz?...

Mamajonova Yulduz Yusupovna

Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani

3- maktabining tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Tel: +99894 307 91 63

Anotatsiya: Ushbu maqolada tabiatdagi ma'lum ranglarning inson ruhiyati, kayfiyati va sog'ligiga ta'siri. O'quvchilarni qizil rangli ruchkada baxolanishdan qo'rqasliklari, qizil rang ularning o'zlashtirishlarini yomon tomonga o'zgarishida salbiy ta'siri yo'qligi haqida misollar keltirildi.

Kalit so'zlar: Rang, iliq, sovuq, ijobiy, salbiy, hayajon, xotirjamlik.

Asrlar davomida olimlar ranglar haqida juda ko'p ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali, Ibn Sino, Kamoliddin Behzod, Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashhur allomalar ranglarning turlari, ma'nolari, inson sog'lig'iga ta'siri va boshqalar haqida juda ko'p asarlar yozganlar. Abu Rayhon Beruniy o'zining "Kitob al- Javohir" - ma'rifat al-Javohir (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini sanab o'tgan va bu ranglarning kelib chiqishi haqida ma'lumot bergan.

Biz o'z fe'l atvorimiz, shaxsiyat va dunyo haqidagi mukammal tushunchalarga ega emasmiz! Ba'zi narsalarni ko'z bilan ba'zi narsalarni esa eshitish orqali, soddagina qabul qilish mumkin. Aslini olganda biz ko'z bilan aniq ko'rib turgan yashirin ma'nolari bo'lishi mumkin. Qizil rang ehtirosni uyg'otsa, moviy va yashil ranglar insonni tinchlantiradi deyishadi. Haqiqatdan ham shundaymi?

Qizil rang insonga kuch-quvvat bag'ishlaydi, moviy bo'lsa tinchlantiradi kabi fikrlarni ko'p eshitganmiz va bunga ishonib ham ulguramiz. Aslidachi, ular bizning kayfiyatimizga ta'sir o'tkazadimi?

AQSH, Shveysariya, Germaniya, Polsha, Avstriya va Buyuk Britaniyaning ba'zi turmalari pushti rangning biron bir tusiga bo'yalgan. Mahbuslar tasodifiy tartibda turlicha, pushti rangda bo'yalganlaridan tortib, kulrang devorli oq shiftli kameralarga joylashtirildi. Qamoqxona xizmatchilariga mahbuslar xulq-atvorini baxolash, uchun tajavuzkorlik shkalasidan qanday qilib foydalanish o'rgatildi. Natija pushti kameralar nazariyasiga ishonganlarni xursand qilmadi. Chunki xona rangidan qat'iy nazar uch kun o'tgach, mahbuslarning tajavuzkorlik darajasi ancha, susaygan. Xullas, bu yerda rangning hech qanday ahamiyati yo'q. Qizil rang ko'k va yashil bilan taqqoslab o'rganilgan. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonlar kognitiv amallarini qizil nur ostida yashil va ko'k nurga qaraganda yaxshi bajarishgan.

Boshqa olimlar esa, buning aksi haqida so'zlashadi. Gap shundaki, agar biz biror rang yorug'ligi bo'yicha avvaldan ma'lum bir tajribaga bo'lsak, yorug'likni doimgiday qabul qilamiz.

O'quvchilarimiz xatolarini qizil bilan belgilasak, ular beixtiyor qizilni xavf-xatar rangi ekanligini his qiladi. Bundan tashqari ular zaharli mevalarning ko'pchiligi qizil ekanligi bilishadi. O'qituvchi "bexato bajarilgan" degan gapni ham qizil ruchkada yozadi. Bolalar mazali bo'lgan qizil rangdagi malina, qulupnay kabi mevalarni bemalol qo'rqmay iste'mol qilishadi. Chiroyli qizil ochilgan guldand zavqlanishadi. Chunki ular qizil rangni insonga kuch-quvvat bag'ishlaydi deb o'ylashidir.

Xromofobiya- insonning ma'lum bir rangdan qo'rqish kasaligidir. Agar e'tibor bergan bo'lsangiz ayrim insonlar ma'lum bir rangga bo'yalgan xonalarda o'zlarini noqulay his



qilishini sezamiz. Bunday huriylar nafaqat ma'lum bir rangdagi xona ichida emas ma'lum rangdagi libos, idish tovoq, bilan to'qnash kelib qolganda ham sodir bo'ladi. Xromofobiya bezovtalik hissi ko'ngil aynish, bosh aylanish holatlari bilan birga kechadi. Odam ma'lum bir rangni ko'rganda, u turli hissiy va ruhiy o'zgarishlarga ega va uning ta'sirini aniq tanlov qilishadi.

Ko'p odamlar qora rang bilan bog'liq bo'lgan narsalarning salbiy ekaniga aminlar, lekin aslidachi

Qora: bu rangni afzal ko'rgan odam sirli bo'lib, bunday kiyimlarni tanlab oladi. U boshqalarni e'tiborini tortishga harakat qiladi. Ularda bu hayotda muhim narsalar yetarli emasligini ko'rsatadi.

Oq: Rang diapazoning eng yorqin vakillari poklik, aybsizlik, quvonch va sadoqat timsolidir. Fursat erkinligi va barcha mavjud to'siqlarni olib tashlaydi. Oq rang tenglik ramzi, chunki u boshqa ranglarni birlashtiradi.

Kulrang: Uni yoqtirgan odam birinchi navbatda tuyg'uga emas, balki oqiga asoslangan bo'ladi. Ushbu rangdagi noma'lum odamlarning kiyimlari kuch beradi. Ular asabiy va hissiy jihatdan charchashmaydi.

Qizil: Issiq, hayajonli, faol va hatto tajavuzkor, hamma qizil rangni shunday tasvirlaydi. Bu rangni yoqtirgan insonlar rahbar bo'lishga intiladi. Barcha his-tuyg'ularni maksimal darajada harakterning salbiy hususiyatlari o'zboshimchalik, o'jarlik, qat'iyatlilikni o'z ichiga oladi.

Dunyodagi eng sevimli rang moviy: Olimlar dunyodagi eng sevimli rang qaysi ekanligini bilish uchun tadqiqot o'tkazdilar. Aniqlanishicha insonlar ko'proq moviy va ko'k rangni yaxshi ko'rishar ekan. Bunday ranglarni afzal ko'rgan insonlar hech qanday chegarani yoqtirmaydi. Ular hayotga faqatgina o'z nuqta'i nazarlarini qaratishadi, muqobil fikrlarni hisobga olmaydilar.

Moviy: Sodda va barqarorlikning belgisi hisoblanadi. Kasalxona dizaynida shu rangdan foydalaniladi, chunki u jiddiy kasallarga kuch beradi. Osmonning va abadiyatning ramzi mehribonlik, sodiqlik, poklik va halollik belgisidir.

Binafsha rang: Ushbu rangni yoqtirganlar orzular bilan yashaydilar. Ular o'z hayotlarini o'z qoidalariga binoan quradilar. Agar shu rangda kiyim kiyishsa, bu yordamga muhtojligini ko'rsatadi.

Ajdodlarimiz bizga rang va uning inson hayotidagi o'rni, shifoviy, tarbiyaviy, falsafiy, ruhiy tomonlari haqida juda ko'p ma'naviyat xazinalari qoldirganlar.

Afsuski, bu ma'naviy merosdan to'liq foydalana olmayabmiz. Chunonchi, ta'lim tizimi, tibbiyot, texnika xo'jaligi, iqtisod, dizayn va boshqa sohalarda bu masalaga juda kam e'tibor berilyapti.

Shunday qilib, rang inson kayfiyatiga, xulq-atvoriga ma'lum ma'noda ta'sir o'tkazadi. Ammo har rangda hamisha bir xil kayfiyat uyg'onadi, uning aniq bir ta'siri bor deyish mushkul. Hozircha rangning inson kayfiyatiga ta'siri ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdirasilov. S. Boymetov B. Toli pov N. "Tasviriy san'at"- T.: Ilm-Ziyo 2006.
2. Abdirasilov. S. N. Toli pov N. "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" T.-2007.
3. Abdirasilov. S. Tasviriy va amaliy san'at -T. 2002.



TASVIRIY SAN'ATNING JAMIYATDAGI O'RNI VA VAZIFALARI.

Mo'minov Shoxboz Komiljon o'g'li

Toshket viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Sport va Chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yonalishi talabasi

+998901471646

shoxboztalaba1998@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz tasviriy san'atning tarixdagi o'rni, hozirgi global hayotda tasviriy san'atning ijobiy ta'siri haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari ta'lim tizimida tasviriy san'at o'qitish metodikasini takomillashtirish hususida takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at tarixi, globallashtirish, ma'naviyatni yuksaltirish, ta'lim tizimi, takomillashtirish.

San'at inson evolyutsiyasining eng muhim bosqichlaridan biridir. San'at insonga dunyoga turli nuqtai nazar bilan qarashga yordam beradi. Vaqtlar, davrlar o'tib san'at ham insonlar tomonidan takomillashib bormoqda. Har doim san'at inson tafakkurida mavhum fikrlashni, o'z qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. San'at - bu iqtidorli inson atrofidagi dunyoni ijodiy tushunishdir. Tasviriy san'at insonga falsafiy tushuncha va ijobiy fikrlar beradi. Tasviriy san'atni madaniyatli inson hayotidan ayro qilib ko'ringchi, u ma'naviy darajasi pasayishni boshlaydi. San'at insoniyat ongining boyligi va u hech qachon tugamaydi. San'at bizning hayotimizda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi va kelajak avlodlarga ma'naviy kamol topishiga yordam beradi. Agar bu san'at bo'lmaganida, biz dunyoga faqat oq-qora ranglarda qaragan bo'lar edik, boshqacha qilib aytganda, odatdan tashqarida, biroz keskinroq his etardik.

Ta'lim tizimida ijodiy darslar uchun ajratilgan dars soatlarining kamligi o'quvchilarning o'z ijodiy imkoniyatlarini va ma'naviy saviyalarini kamol toptirish uchun kamlik qilmoqda. Bu hozirgi yoshlarni ma'naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdagi asosiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Bu vaziyatni o'nglash uchun maktab va oliy ta'lim muassasalarida ijodiy to'garaklar tashkil qilish samarali usullardan hisoblanadi. Tasviriy san'at oliy o'quv yurtlarida boshqa fanlarning dars soatlari ko'pligi ijodiy mashg'ulotlarga kam vaqt qolayotganligiga sabab bo'lmoqda. To'garakning ijobiy foydalarini quyidagi misollarda ko'rib chiqish mumkin:

- bu mashg'ulotlar natijasida yoshlardagi ishtiyoq va shaxsiy qobiliyatlari yorqinroq namoyon bo'ladi.

- o'quvchi va pedagog o'rtasida ustoz shogird an'anasi shakllanadi.

- O'qituvchi ijodkor bolaning iste'dodini yaqindan sezishga va uni rivojlantirishga muhit yaratadi.

- O'quvchi ijodiy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi natijasida ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllanadi.

Kelajak avlodimizning poydevori bo'lgan yoshlarning ijodiy salohiyatini oshirmasak, iste'dodini yuzaga chiqarmasak ularda ma'naviy qashshoqlik yuzaga keladi.

Tasviriy san'at insoniyat hayotida buyuk bir sahifaki, unda hayotimiz tarixining sirlari yashiringan. Ba'zida unda eng qadimgi qo'lyozmalar ham javob berolmaydigan savollarga javob topish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andijon davlat universiteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası "Tasviriy san'at" tarixi o'quv qo'llanmasi. Andijon 2017.

2. I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asari. "Toshkent ma'naviyati" 2010.



TASVIRIY SAN'AT FANINING BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'RGATILISHI.

Pinazarova Munavvar Raximovna
(Navoyi viloyati Navbahor tumani
29-maktab tasviriy san'at va
chizmachilik fani o'qituvchisi)

Annotatsiya: Boshlang'ich 1-4 sinf tasviriy san'at metodikalarida illustratsiyalar ko'proq berilishini tavsiya etaman, chunki illustratsiya mavzularida o'quvchi juda qiziqiqish bilan yondashadi. Boshlang'ich sinflarda Tasviriy san'at darslari boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim. maqolada fanlar bilan uzviy bog'lanish usullaridan foydalanish ko'rsatilib o'tilgan. Qaysi bir fandan qanday metod va mavzulardan foydalanish aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Illustratsiya, rang tasvir, tabiat, fasllar, go'zallik, tasavvur, amaliy san'at, rang, qalam

Odam bolalikdan yaxshilik va go'zallik kurtaklarisiz hayotga qadam qo'ymasligi kerak, avlodlarni ham yaxshilik va go'zallik kurtaklarisiz-nafosatsiz hayotga yo'llab bo'lmaydi.

O.SHarafiddinov

Respublikada ta'lim tarbiya jarayoni bilan bog'liq o'zgarishlar ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni milliy ruh bilan sug'orish, samarali an'anaviy uslublarni saqlab qolgan holda yangilarni yaratish va amaliyotda qo'llash olib borilayotgan ishlarga bog'liq. Bu yo'nalish keng qamrovli bo'lib, mazmunan takomillashib bormoqda. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'limning butun jarayonini maqsadga ko'ra individuallashtirishni nazarda tutadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi negizida o'quvchilarni xalq amaliy san'atiga yo'naltirish, ularning barkamol shaxslar bo'lib etishishi uchun tasviriy san'atni mukammal o'rgatish o'quvchilarda tasavvur olami kengligi, idrok etishi, go'zallikni ko'ra olishi va so'z boyligini oshirish asoslarini chuqur o'rganishlariga e'tiborni kuchaytirish talab etiladi.

Boshlang'ich 1-4 sinf tasviriy san'at metodikalarida mavsumiy illustratsiyalar ko'proq berilishini tavsiya etaman, chunki illustratsiya mavzularida o'quvchi juda qiziqiqish bilan yondashadi. Dars jarayonida o'qituvchi illustratsiyani mahorat bilan tushuntirib o'quvchi tasavvur olamiga namoish etadi va jonlantiradi bu o'z-o'zidan dars boshqa fanlar bilan uzviy bog'lanadi. Masalan o'qish fani bir nuqtadan ifodali o'qish, ona tili so'zlarning talafuzi va yozilishi, tabiatda ranglar uyg'unligi fasllarda ranglar o'zgarishi, matimateka masal qahramonlarini sanash, shakllardan foydalanib kompozitsiya yaratish. Masalan qish manzaralarini tasvirlashda uchburchak shakllardan foydalanib archa tasvirini chizib olamiz, qorbola tasvirida aylana shakllardan foydalanish mumkin. Archa va qorbola tasvirlarida biz matematika shakllardan foydalandik. Uchburchakning nechta tomonlari bor?, Aylananing tomonlari bormi? Yoki 2-sinf darslikda "Lola va o'rik guli" mavzusida biz ona tili faniga bog'lab "Bu nima, bu kim" o'yini tashkil qilishimiz mumkin. Masalan lola gul -bu nima?, so'rog'iga javob bo'ladi va kichik harf bilan yoziladi. Lola kishilar ismi - bu kim? sorog'iga javob bo'ladi va katta harf bilan yoziladi. Tabiat faniga bog'lab o'rik daraxtining parvarishi, lola gulining turlari va ular nima uchun qizil kitobga kiritilyapti?. Matematika faniga bog'lab qirda qizil lolalar soni va sariq lolalar soni nechta? O'qish faniga bog'lab bahor faslini tasavvur ko'lamida ifodalab berish tafsiya etiladi. Haykaltaroshlik mavzularida "Sholg'om" ertagi asosida haykalchalar ishlash. Bu mavzu boshqa fanlarni o'z ichida uzviy bog'lab boradi. O'qish fani ertakni ifodali o'qish, Tabiat darsiga bog'lab sholg'om



qanday yetishtiriladi?, Odoynomada darsiga bog`lab "Kuch - birlikda" maqoli asosida oquvchilarning do`stona munosabatlarini shakllantirish. Matematika faniga bog`lab ertak qahramonlarini sanash yoki sholg`om qanday shaklda ekanligini topish orqali darsning nazariy qismi o`z maqsadiga erishadi.

Darsning asosiy qismi bu rangtasvirda ishlash bosqichlari bo`lib bu mavzuda ranglar uyg`unligini ko`rsata olish. O`quvchilarni shu yo`sinda kasb tanlashga yo`naltirish bugungi kun talabidir

Ranglarning asosiy xususiyatlarini amaliy jihatdan bilish uchun ularni turli buyumlarda sinab ko`rish kerak (turlicha to`yingan-likdagi mevalar, sabzavotlar, rangli drapirovkalar va hokazolarda).

Ma'lumki, tabiatdagi har bir narsa o`ziga hos murakkab ranglarga ega. Buni chuqur tushunish, ular orasidagi aloqadaorlikni anglash muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan mazkur mavzudagi kishki osmon, yer, daraxt va navdalar, uzoqdagi uylar, o`ynayotgan bolalar tasvirini rangtasvirda ifodalash muayyan mahorat va tajribani talab qiladi. Qishki tabiatning o`ziga xos ko`rinishi, unda o`yin o`ynayotgan bolalar ustki kiyimlarining yorqin ranglari tasvirlanishlariga diqqat qilinadi. Uzoqdagi va yaqindagi narsalar tasvirlarini ishlash malakalari ishga solinadi.

Akvarel texnikasiga rioya qilgan holda, ranglarning haddan ziyod kirlashib ketmasligiga e'tibor qilinadi. Yana bir bor, ko`zdan kechirilib, umumlashtiriladi.

Bir rangga boshqasini qo`shish natijasida bo`yoqlar o`zining to`yinganligi (yorqinligi)ni yo`qotadi. Masalan, ranglarni qo`shish orqali yorqin zarg`aldoq, yashil va siyohrangni hosil qilish ancha murakkab. Shuning uchun ham ayrim hollarda palitrada tayyor holatdagi yorqin zarg`aldoq, yashil, havorang va siyohrang bo`yoqlarning bo`lishi ortiqchalik qilmaydi.

"Rangtasvir - tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo`laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorug`lik kuchi va har bir bo`lakni o`zaro taqqoslash natijasida, bo`yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to`laqonli ifodalashi mumkin" - degan edi K.F.Yuon.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR:

1.Tasviriy san`at asoslari.



TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHNING DIDAKTIK PRINSIPLARI

Qoraboyeva Zulfiya Momosodiqovna
Norin tumanidagi 14-sonli IDUMI
tasviriy san'at va chizmachilik
fani o'qituvchisi
+998907418737

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at fanini o'qitishning didaktik prinsiplari, ularning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni haqida m'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, didaktik prinsiplar, ta'lim va tarbiya jarayonlari, pedagog olimlar, ko'rgazmalilik, ilmiylik, onglilik va faollik, muntazamlilik va ketma-ketlilik, ta'lim mazmuni, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari.

Umumiy o'rtata'lim maktablaridatasviriy san'at darslarini didaktikprinsiplarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Faqat amaliyot bilan nazariyani uzviy bog'lagan holdagina dars va darsdan tashqari ishlardata'lim vatarbiyaning samarali bo'lishigaerishish mumkin.Didaktikprinsiplar va ularning asosiy masalalari Yevropaning buyuk pedagog olimlari Ya.A.Komenskiy, J.J. Russo, I.G.Pestalotsilar tomonidan ishlab chiqilgan.Shuningdek, didaktikprinsiplarni ishlab chiqishda F.A.Disterveg va K.D.Ushinskiylar ham katta hissa qo'shganlar. Ular tomonidan ilgari surilgan g'oya hozirgi zamon didaktikasining asosini tashkil etadi.

Didaktikprinsiplar hisoblangan ta'lim vatarbiyaning birligi, ko'rgazmalilik, ilmiylik, onglilik va faollik, muntazamlilik va ketma-ketlilik, ta'lim mazmunini bolalarning kuchi va yoshiga mos bo'lishi maktabda tasviriy san'atni o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabda tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplar professorlar N.N.Rostovtsev, V.S.Kuzin, R.Xasanovlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Ta'lim vatarbiya birligi PRINSIPI didaktik prinsiplarning eng asosiylaridan hisoblanadi va bu tasviriy san'atni o'qitish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki bugungi kunda ta'lim-tarbiyaning asosiy qismlaridan biri o'quvchilarni har tomonlama yetuk, o'z kasbining ustasi etib tarbiyalashdir

O'quvchilar tasviriy san'at asarlarini o'rganish orqali chet el mamlakatlari xalqlarining mehnati va mehnatdagi jasoratlari, an'analari, odatlari, turmush tarzi hamda tabiati bilan oshno bo'ladilar. Jamiyat qurilishining muvaffaqiyati har bir kishining mehnat qilish darajasiga borliq. Shuning uchun kishilarning jamiyat uchun nafi bo'lgan mehnatga nisbatan xatti - harakati asosiy ko'rsatkich sanaladi. Bu sifat mehnat tarbiyasi jarayonida vujudga keladi. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar mehnat tarbiyasini amalga oshirishdagi imkoniyatlari katta. Bu masala tasviriy san'at darslarining barcha turlari - naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlari mazmunida kuzda tutilgan. Naturaga qarab tasvirlash jarayonida o'quvchilar turmushda qo'llaniladigan turli buyumlar, sabzavot va mevalar tasvirini ishlaydilar.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar mustaqil ish boshlamaslaridan oldin naturani qisqacha tahlil qilib, faqat buyumlar shakli, proporsiyasi, rangi va tuzilishi haqidagina emas, balki ularni yaratish uchun sarflangan katta mehnat haqida gapirib beradi.

Masalan, turmushda qo'llaniladigan ayrim san'at buyumlarining o'ziga qarab rasmini chizdirishda o'qituvchi o'quvchilarga buyumlarning vazifasi, shakli, ularning qanday materiallardan yasalgani, buning uchun qancha mehnat sarflangani va hokazolar haqida to'xtaladi. Shuningdek, o'zbek xalq amaliy san'ati haqidagi suhbat



darlarida o'qituvchi ularning turlari va ustalarni mehnat shijoatining o'ziga xos jihatlari haqida gapiradi.

"Paxta terimi", "Fermada", "Hosilni yig'ib-terib olish", "Maktab yer uchastkasida", "Qurilishda" kabi mavzularda rasm chizdirish o'quvchilarni kattalar mehnati bilan tanishtiradi. Ishlab chiqarish korxonalariga qilingan sayohat bu masalada muhim ahamiyat kasb etadi. Sayohatda bolalar kishilarning qanday mehnat qilayotganlarini kuzatadilar, mehnat sharoitlari va uni tashkil etish yo'llari bilan tanishadilar, kattalar mehnatining natijalarini ko'radilar. Sayohat chog'ida ular kattalar mehnatining axloqiy jihatlari ularning mehnatga bo'lgan munosabatini, mehnatning jamoaviy xarakterini o'rganadilar. Bolalarni sayohat jarayonida olgan taassurotlari ularning rasmlarida aks etadi, natijada o'quvchilarning mehnat haqidagi tasavvurlari yanada kengayadi.

Bolalar o'zbek rassomlari asarlarining qahramonlari bo'lmish artist A.Xidoyatov, xalq xofizi Mulla To'ychi Toshmuhammedov, amaliy san'at ustasi U.Jo'raqulov va boshqa baxtini mehnatdan topgan kishilar bilan suvratlar orqali uchrashar ekanlar, ular, mehnat jamiyat xayotining, har bir shaxsining asosiy qonuni ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Bunday darslarda o'quvchilarni turli kasblarga yo'llash imkoniyatlari paydo bo'ladi. Natijada, o'quvchilar mehnat inson baxt-saodatining ma'naviy va axloqiy manbayi, har qanday inson mehnat qilmog'i va mehnatni sevmog'i lozim, degan xulosaga keladilar. Shuningdek, bolalar odamlar faqat o'zi uchun emas, jamiyat uchun mehnat qilishlari kerak, mehnat kishilariga va ular yaratgan buyumlarga nisbatan hurmat bilan qarash lozimligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Maktabda tasviriy san'at estetik turkumdagi o'quv predmeti

hisoblanib, o'quvchilarda badiiy va estetik didning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu fanni o'qitishda pedagoglarning ta'lim jarayonlariga mas'uliyat bilan yondashishlari talab etiladi. Ta'lim prinsiplari esabu jarayonni to'g'ri yo'nalishdatashkil etishgayordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.Xasanov. "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi".n O'ZRFA "Fan" nashriyoti. 2004 yil.
2. R.Xasanov. "Tasviriy san'at asoslari" 2009 yil.
3. R.Xasanov. "Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlar". "Ishonch nashrsavdo" MCHJ nashriyoti. 2017 yil.



БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR

Sohibova Zilola Sadulloyevna,
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 20-umumta'lim maktabning
biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda biologiya va ekologiya sohasida amalga oshirilayotgan innovatsiyalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'z: biologiya, innovatsiya, ilmiylik izchillik

Biologiya fanini o'qitishda samaradorligga erishish innovatsion usullari:

1. Biologiya fanini o'qitishda ilmiylik va tushunarlilik;
2. Sistemalilik va izchillikni taminlash;
3. Kompyuter texnikasidan foydalanish;
4. O'quvchilarning yosh va shaxsiy hususiyatlarini hisobga olib interfaol usullardan foydalanish;
5. Organizmlarning tuzilishini o'zaro taqqoslashni o'rgatish;
6. O'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasiga erishish.

Innovatsion usullarni dars jarayonida qo'llash o'quvchining bilganlarini tartibga solishni, bilmaganini so'rab olishni, faolligini oshirish, qiziqishlarini oshirish, mustaqil ishlashni, qo'shimcha manbalardan axborot izlashni va o'zaro axborot almashinishini ta'minlaydi. Masalan, odam va uning salomatligi fanidagi umumlashtiruvchi dars jarayonlarida "shifokor va bemor" sahnali dars usullarini qo'llash mumkin. Unda ikkita o'quvchi yoki guruhlardan bittadan o'quvchi qatnashadi. Birinchi guruh o'quvchisi biron kasal belgilarini hatti-harakatlar yoki bayon etish orqali bemor ko'rinishida izohlab beradi. Ikkinchi guruh ishtirokchilari esa bu kasallik qaysiligini bilsa shifokor bo'lib unga tashxis qo'yadi

va qaysi kasallik bilan og'riganligini uning kelib chiqish sabablari va oldini olish chora tadbirlari haqidagi ko'nikma va malakasini oshiradi.

Yuqori sinflarda selleksiya va genetika mavzularini tushuntirishda "yosh tadbirkor" usulini qo'llash mumkin. Bu yoshlarning innovatsion g'oyalarini aniqlashda va uni amaliyotda





qo'llay olish ko'nikmalarini yoki kompetensiyalarini shakllantirishda muhimdir.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev belgilab qo'ygan 5 ta strategiyaning asosini tashkil etuvchi Tadbirkorlik va innovatsion g'oyalarning qo'llab quvvatlanishi bugungi avlodni tadbirkorlik ruhida tabbiyalshga zamin yaratadi. Chunki qitisodiyotimiz rivojiga muhim hissa qo'shuvchi sohalardan biri chorvachilik va dehqonchilikda muhim rol o'ynovchi hayvon va o'simliklarning foydali yuqori va sifatli zot va navlarini yaratish muhim dolzarb vazifadir. Shu bois o'quvchilarni bu sohaga qiziqtirishda issiqxona pillachilik qo'ychilik, qoramolchilik kabi olg'or fermer xo'jaliklariga ekskursiyalar tashkil etish shu soha vakillaridan bu sohaning bilim sirlarini usularini amaliy o'rganib olishiga qiziqishlarining yanada ortishiga va o'quvchilarning kasb egallashida ham muhim rol o'ynaydi deb o'ylayman. Shuningdek, biologiya fanini o'qitishda ko'p qiyinchilik tug'diradigan muammolardan biri biologik atamalarni ozlashtirish muammosi bor.

Biologik atamalarni o'quvchilarga tez va oson o'zlashtirib olishlari uchun bob yuzasidan umumlashtiruvchi dars jaroyanlarida qo'llash mumkin bo'lgan bir necha xil usullarini tavsiya qilaman.

Masalan: (1-rasm)

Hozirgi kunda eng global ekologik muammolardan biri atmosferada karbonat angidrid gazining ko'payib havoning isib borishiga, muzliklarning erishiga va ozon ekranining yemirilishga sabab bo'lmoqda. Bilamizki hozirgi kunda fan va texnika rivojlangan bir davrda zavod va fabrikalar ishlab chiqarishlar ham ko'payib ulardan ajralib chiqayotgan CO₂ gazi havoning ifloslanishini kuchaytirmoqda, bu muammoni samarali hal etishda shu zavod va fabrikalar atrofidagi muhit iqlimi, tuproq tarkibini o'rganib shu muhitga moslashgan o'simlik navlarini yaratib agroekosistemani rivojlantirish kerak. Bu esa bo'sh yotgan yerlardan unumli foydalanish, aholi bandligini ta'minlashga ham yordam beradi. Yana bir global muammo Freon gazining ta'sirida azon ekranining yemirilishini bartaraf etish innovatsion usullarni qo'llash kerak. Freon gazini havoga ajratuvchi texnikalardan biri bu- yaroqsiz muzlatkichlardir. Ularni qayta ishlab bo'laklarga ajratib tarkibidagi mustahkam metalni saralab olish kerak va uni qayta ishlash jarayonida qo'llab prates qo'l va oyoqlar yasashda, harbiy sohada, himoya bosh kiyimi, ichki himoya kiyimlarini tayyorlashda qo'llab harbiylarning favqulodda vaziyatlarda tirik qolishlarini taminlash mumkin. Ko'chalarda eng ko'p uchraydigan ifloslanishiga ichimlik suvlaridan bo'shgan plasmassa idishlaridir. Ularni ham qayta ishlash orqali yangi mahsulotlar yaratish mumkin. Masalan, ulardan qattiq preslash orqali plastik taxtasimon mahsulotlar yaratish mumkin va uyjihoz qurilish materiallari sifatida ham qo'llash mumkin.



ЎЗБЕКИСТОН РАНГТАСВИРИДА ПОРТРЕТ ЖАНРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА "ЯНГИ ОДАМ ОБРАЗИ"

Имамов Азизхон Авазханович,
ЎзР ФА Санъатшунослик институти таянч докторанти (PhD)
Телефон: +998(90) 1896762,
azizxon_uzas@mail.ru

Аннотация: Мазкур мақолада 1920-1930 йиллар Ўзбекистон рангтасвирида "янги одам образи"нинг портрет жанридаги талқини масаласи кўриб чиқилган. Муаллиф ушбу ижодий жараёнда муҳим рол ўйнаган декоратив портрет тенденциясини алоҳида ажратган ва унга таъсир кўрсатган тарихий-маданий омилларни белгилаб берган. Мақолада декоратив тенденция доирасида ижод қилган рассомлар, улар яратган замондошлар образи учун хос специфик хусусиятлар: умумлаштирилган, шартли-типологик портрет шакли умумий жиҳатдан таҳлил қилинган. Тадқиқотчи бу орқали Ўзбекистон рангтасвирида портрет жанрининг шаклланишига алоқадор асосий хусусиятларга аниқлик киритган ва бу жараёнда "янги одам образи"ни акс эттирган декоратив портретлар асосий тенденцияга айланганини асослаб берган.

Калит сўзлар: рангтасвир, жанр, портрет, образ, тенденция, декоратив-портрет, портрет-тип, стиль, авангард, монументал-портрет.

1920-1930 йиллар Ўзбекистон рангтасвирида портрет жанрининг шаклланишида актуал аҳамиятга касб этган "янги одам образи" тушунчаси шартли белгиланган ижтимоий характерга эга бўлиб, жамият ҳаётида юз берган туб ўзгаришлар натижасида қрарор топишни бошлаган замонавий шахс тимсоли билан бевосита боғлиқ. Бу масалага биринчилардан бўлиб, эътибор қаратган В. Чепелев минтақа санъатига хос декоратив-орнаментал анъаналарни ҳисобга олган ҳолда, портрет жанрида кузатилувчи шартли, формал хусусиятлар мавҳумликдан йироқлигини, ҳаётий асосга эга эканини ёқлаган. А. Волков, Ў. Тансиқбоев, Н. Карахан, А. Подковиров каби рассомлар ижодида яққол акс этган ушбу тенденция Ўзбекистон санъатининг асосий ривожланиш йўлига айланиши лозим бўлган "Янги ғояларга бой декоратив стиль" сифатида қайд этилган [16.1, 39].

Мазкур даврга оид архив материаллари, музей коллекцияларининг замонавий анализи мавжуд хулоса етарли даражада асосга эгаллигини, умумлаштирилган, йиғма образлар каби таассурот қолдирувчи портретларда рассомлар умумий типологик сифатлар билан чекланиб қолмаганини тасдиқламоқда. Уларнинг салмоқли қисми конкрет шахсларнинг индивидуал қиёфаси, ҳаётий прототиплар асосида яратилган ва портрет жанри учун муҳим ҳисобланган қатор ижодий мезонлар, "ўхшашлик" тушунчаси, натура устидаги иш жараёни тўғрисида мушоҳада юритишга имкон беради.

Бироқ бу даврда "Мастера Нового Востока" (1926-1932 йиллар), "АРИЗО" (1929-1932 йиллар), А. Волков бригадаси (1931-1932 йиллар) каби бирлашма ва гуруҳларда ижод қилган рассомлар учун реалистик талқиндаги портретларни яратиш масаласи бирламчи аҳамият касб этмаган. Уларнинг кўп қисмини инқилобнинг дастлабки йилларида Россиядан ташриф буюрган авангард оқимларига мойил рангтасвир усталари ташкил қилган. Минтақа халқларининг анъанавий маданиятига катта қизиқиш билдирган бу ижодкорлар Фарб санъатидаги замонавий бадиий оқимларни "шарқона" кўринишда қайта талқин этишга ҳаракат қилишган. Портрет жанрида бу турли стилистик тенденциялар шаклланишига олиб келди.



Улар орасида "янги одам образи" билан алоқадор декоратив портретларни рассомлар ижодида кенг тарқалган талқин шаклларида бири сифатида ажратиш лозим. Муҳандислар, дала меҳнаткашлари, эркинликка эришган аёллар, ижодкор ва зиёлиларнинг умумлаштирилган образи гавдаланган мазкур асарларда янги типологик-портрет талқинлари илгари сурилган бўлиб, улар "анъанавий портрет"лардан фарқланади. Бу декоративизм 1920 йилларнинг иккинчи ярмидан бошлаб, А. Волков ва унинг бригадаси аъзолари Ў. Тансиқбоев, Н. Карахан, А. Подковиров портретларида яққол намоён бўлган. 1930 йиллардан бошлаб, мазкур тенденция доирасида монументал-декоратив портрет шакли юзага келади.

Умумлаштирилган характерга эга замондошлар образи М. Курзин, Е. Коровай, О. Татевосян, Б. Пестинский, А. Сиддиқий каби рассомларнинг портретларида ҳам акс этган. Уларнинг ижодий изланишлари А. Волков бригадаси аъзолари билан бевосита боғлиқликда кечмаган. Шунга қарамай, ҳар икки гуруҳ рассомларини портрет-тип шаклини яратишга бўлган умумий интилиш бирлаштириб туради. Шунингдек, қатор рассомлар ижодида Ғарб санъатидаги илғор бадиий оқимларнинг миллий мерос билан уйғунлашувини кўриш мумкин. Бироқ мазкур изланишларни "авангард портретлари" сифатида таснифлаш масаласи жиддий мушоҳадани талаб этади. Л. Ремпель белгилаб ўтганидек, Ўзбекистон рангтасвирида портрет жанри тескари тартибда шакланган ва унда XX аср Европа модернизми учун хос "шахс инқирози" кузатилмайди [12.1, 212].

Мавжуд хусусиятлар "янги одам образи" портрет жанри учун актуал аҳамият касб этганини ҳамда ўзига хос образли-стилистик талқинларни қамраб олганини тасдиқлайди. Унда устуворлик қилган декоратив ёндашув шаклланиш даври учун хос ўткинчи хусусият эмас, балки рассомлар ўз олдида қўйган индивидуал ижодий вазифалар натижаси ҳисобланади. Мазкур изланишлар ўзида янги портрет талқинларини акс эттирган ва шу сабабли жанр доирасидаги асосий тенденция сифатида қайд этилиши лозим. Бу йўналишда амалга ошириладиган янги тадқиқотлар миллий портрет санъати ҳақидаги мавжуд илмий тасаввурни кенгайтириб, 1920-1930 йиллар рангтасвирида кечган жараёнларда мазкур жанрнинг ролини янада чуқур англашга ёрдам беради, деб ўйлаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Bowlt John Ellis. Russian Art of the Avant-Garde. Theory and Criticism. - N.Y.: "The viking press", 1976. - 361;
2. Gray Camilla. The Russian Experiment in Art 1863-1922. - L.: "Thames and Hudson", 1962. - 296;
3. Nakov Andrei. Avant-garde russe. - N.Y.: "Universe Books", 1986. - 119;
4. Ахмедова Н.Р. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. - Т.: "SDC", 2004. - 224;
5. Ахмедова Н.Р. Методологические вопросы и музееведческие аспекты изучения живописи Узбекистана 1920-х - 1930-х годов / Музей в эпоху гиперкоммуникации: новые подходы: материалы научно-практической конференции. - А.: 2018. - 18-23;
6. Волков А. Солнце и караван / Вступ. ст. Дж. Боулт; пер. С. Шкунаева, И. Горст. В. Волков. - М.: "СЛОВО /SLOVO", 2007. - 288;
7. Зингер Л. С. Советская портретная живопись 1917 - начала 1930 годов. - М.: "Изобразительное искусство", 1978. - 296;
8. Ковтун. Е. А. Авангард, остановленный на бегу. - Л.: "Аврора", 1989. - 275;
9. Махмудов Т.М. Эстетический анализ основных тенденций развития современного искусства Узбекистана. Диссертация на соискание ученой степени доктора философских наук. - Ташкент. 1981. - 311;



10. Мюнц М.В., Ремпель Л.И. Изобразительное искусство Узбекской ССР. - М.: "Советский художник", 1957. - 76;
11. Ракитин В.И. Уроки одной художественной школы. Живопись Узбекистана 20-х - 30-х годов // "Искусство". - М., 1970, №1. - 32-38;
12. Ремпель Л.И. Портрет и личность в искусстве Средней Азии. Қўлёзма. Ташкент, ЎзР ФА СИ архиви, ИЖ Р-38, №1324. 1988;
13. Сарабьянов Д.В. Русская живопись. Пробуждение памяти. - М.: "Искусствознание", 1998. - 432;
14. Умаров А.Р. Портретная живопись Узбекистана. Диссертация на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. - Ташкент, 1962. - 305;
15. Хакимов А.А. Искусство Узбекистана: история и современность. ? Т., "San'at", 2010. - 504;
16. Чепелев В.Н. Искусство Советского Узбекистана. ? Л.: "ЛОССХ", 1935. - 127;
17. Ўзбекистон миллий портрет санъати. таҳрир ҳайъати: Алимов Б. ва бошқ.; кириш сўзи: Абдуллаев Н. - Т.: "Фафур Фулом", 2011. - 160.



TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA KOMPOZITSIYA USULLARIDAN FOYDALANISH

Mashrabboyeva Tursunoy

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani XTB ga qarashli

14- sonli maktab tasviriy san'at ta'lim o'qituvchisi

tel raqam +998 93 176 03 30

Electron pochta namyan14maktab@umail. Uz

Annotatsiya: maqolada interfaol usullarni maqsadi, interfaol usullarnin o'qitish vazifasidagi o'рни va o'tkazish yo'llari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: interfaol ,og'zaki va yozma hisoblash, masalalar, topshiriqlar, usullar, o'quvchilar faoliyati.

Ta'lim tizimining barcha bo'ginlarida tasviriy sa'natning nazariy asoslari bilan tanishtirish o'quv rejalarida tegishli o'rnini egallaydi. Bunda asosiy e'tibor kompozitsiya, yorug'soya, rangshunoslik, prespektivani o'rgatishga qaratiladi.

"Kompozitsiya" atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, tuzilish, birlashish, bog'lanish ma'nosini anglatadi. U ijodkor g'oyasini tomoshabinga aniq, oson, tez etib borishiga xizmat qiladi.

Narsani o'ziga qarab rasm chizishda kompazitsiya. Biz kundalik hayotimizda, turmushimizda juda ko'p predmet va voqea-hodisalarning tasvir-rasmlariga duch kelammiz, ularni ayrimlari bizga yoqadi, ayrimlari yoqmaydi.

Tasviriy san'atda kompazitsiyaning uch turi mavjud. Ular frontal kompazitsiya, hajmli kompazitsiya, chuqur fazoviy kompazitsiyasidan iborat.

1 Frontal kompazitsiya. Bunda tasvir tekistlik yuzasida ishlanadi. Ular rangtasvir, relefli haykallar, binolar fasadini tasvirlash, naqshlar bo'lishi mumkin.

2 Hajmli kompozitsiya. Bunday kompozitsiyalar uch o'lchovga ega tasvirlar bo'lib, ularni har tomondan kuzatish mumkin. Ular asosan yumaloq hakallar amaliy san'at buyumlari, me'morchilik binolarini modellarida namoyon bo'ladi.

3 Chuqur fazoviy kompozitsiya. Bunday kompozitsiyalar ko'proq turar joy va jamoat binolarining ichki qismini, xususan uy xonasi, jamoat joylarining ichki qismini, xususan uy xonasi, jamoat joylarining foesi, teatr saxnasi kabilarning loyixalatidan ko'zga tashlanadi.

Rangtasvirda kompozitsiya tasviriy san'atda kata o'rnini egallaydi. Bunga sabab tasviriy malakalarini rivojlantirish rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlardan amalga oshiriladi.

Xaykaltaroshlik kompozitsiyasi bevosita xaykal yaratishning bilan bog'liq bo'lgan qonunlar, qoidalar, uslub va vositalar uning amaliy jihatlarini o'z ichiga oladi.

Dekorativ kompozitsiya tushunchasi asosan rangtasvir va xaykaltaroshlikda qo'llaniladigan badiiy bezak ishlari bilan bog'langan. Ular freska, mozaika, vitraj, istirohat bog' xaykaltaroshligi, mayda plastika, me'morchilik binolarining relefli bezaklarda frizlar shaklida uchraydi.

Tasviriy san'at asalaridagi kompozitsiyaning yaratish printsip vaqonunlarni bo'lgusi mutaxasis rassomlar uchun nixoyatda zarurdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, rangtasvirda kompozitsiya rasm ishlashdagi murakkab jarayonlardan hisoblanadi. Shuning uchun ham o'quvchi va talabalarniing ishlari faqat perspektiva va rang jihatdangina emas, balki kompozitsiya jihatdan ham bo'sh bo'ladi. Buni yoshlar emasligi va rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga bunga o'quvchilar kompozitsiyaning nazariy asoslari hisoblangan uning qonun va qoidalari, uslub va vositalari haqida yetarlicha bilimlarida ega emasliklari sabab bo'ladi.

Kompozitsiyahaqida fikr yutitganda avvalo uning o'lchovi va formatidan boshlagan



ma`qul. Chunki kompozitsiyaning ta`sirchanligining oshirishda uning o`lchovi va formatidan boshlagan ma`qul. Chunki kompozitsiyaning ta`sirchanligining oshirishda uning o`lchovi va formatini (gorizontal, vertikal, kvadrat, formatlar) to`g`ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Format shakli va o`lchovi rassomning g`oyasi belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Format shakli va o`lchovi rassomning g`oyasi, asar mavzusi va mazmuniga va suratdagi detallarga bog`liq bo`ladi.

Agarda portretida figura tikkasiga tasvirlanadigan bo`lsa, rassom asar formatini bo`yiga tutadi yoki rassom tasvirni chapdan o`ngga va aksincha o`ngdan chapga haratda tasvirlaydigan bo`lsa formatini eniga tutadi.

Albatta, suvrat kompozitsiyasi va uning ta`sirchanligini oshirish haqidagi qonun va uning ta`sirchanligini oshirish haqida qonun va qoidalarni hammasi ham yoshlarning idroki va saviyasiga mos emasdek tuyiladi. Biroq o`qituvchi ularni kompozitsiyaning ana shu muhim nazariy asoslarini yoshlar idrokiga yarasha samarali yo`llar va metodlar bilan tushuntirganada ular materiallarni talablar darajasida o`zlashtirishlari mumkin bo`ladi.

Kompozitsiya qonunlari deganda birinchi galda bir butunlik yoki uning suvrat detallarining o`zaro bog`liqligi qonuni, kompozitsiyadagi detallarining asar g`oyasiga bo`ysundirilgan bo`lishligi, kontrastlar qonuni hayotiylik qonuni kabilar nazarda tutiladi.

Kompozitsiya qoidalari deganda hisoblangan ritm, kompozitsion markazning bo`lishligi, ularning simmetrik yoki assimetrik joylashuvi, kompozitsiyada harakat, turg`unlik, planlik, paralellik kabilar nazarda tutiladi.

Kompozitsiya qonun va qoidalari bilan birga o`quvchilar kompozitsiyasi uslublari va kompozitsiya vositalari haqida ham ma`lum miqdorda tasavvurga ega bo`lishlari lozim.

Kompozitsiya uslublari deganda tasvirni monumental tarzda ifodalash, fazoviy tasvirlash, detallarning gorizontallar, vertikal, dioganallar bo`yicha tasvirlash, kabilar tushuniladi.

Kompozitsiya vositalari chizi, oq, qorq, ranglar, dog`lar, chiziqli va xavo (rang) perspektivasi qoidalari asosida tasvirlash kabilar hisoblanadi.

Kompozitsiya qonunlari haqida gapirganda shuni ham ta`kidlash lozimki, surat detallarni o`zaro boqliqligi qonuni, asar g`oyasidan kelib chiqqan holda uning mazmunini ishonarli bo`lishligi uchun hayotdagi kabi unda barcha mavjudotlar bir-biri bilan aloqadorlikda tasvirlanishini talab etadi. Aks holda asarni tomoshabinga ta`siri talab etadi. Aks holda asarni tomoshabinga ta`siri yaxshi bo`lmaydi.

Suvratda yangilikni bo`lishligi yoki orginal bo`lishligini qonuni esa masalaga ijodiy yondashish lozimligini bildiradi. Bu esa yaratilgan asar avvallari yaratilgan ishlarining nusxasi bo`lmasdan balki, ularda rassom tomonidan kompozitsiya, mazmun, g`oya, rang, uning elementlarining joylashuvi jihatdan yangicha yondashuv zarurligini bildiradi. Suvrat yuqorida qayd qilingan jihatlari bilan avvallari yaratilgan asarlardan tubdan farq qilsa, ya`ni orginal (qaytarilmas) bo`lsa ish yanada yuqori baholanadi.

Asarning bosh g`oyasi tabiat go`zalligini tarannum etish bo`lsa, unda rassom o`z g`oyasiga mos ravishda suvratdagi barcha detallarni ularning tuzilishi, shakli, rangi va boshqa jihatlari bo`yicha chiroyli yoqimli qilib tasvirlashi kerak bo`ladi. Suvratda xayvotlar, daraxtlar tog`u toshlar, uylar, soylar bilan bir qatorda xattoki osmondagi suzib yurgan parcha-parcha bulutlarni ham shakl va rang jihatidan g`ozal tarzda tasvirlash kerak bo`ladi. Shundagina suvratdagi barcha detallar rassomning bosh g`oyasiga mos bo`ladi.

Kompozitsiyada kontrastlar qonuni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu qonun undagi detallar rang va tong jihatidan bir biridan keskin farq qilishligini bildiradi. Xususan, ular och va to`q, iliq va sovuq rangda, og`ir va yengil ranglarda bir - biriga qarama-qarshi bo`lishlari lozim. Shundagina suvratdagi detallar bir-birining fonida aniq va ifodali ko`rinadi.



Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. 1999 yil.
- 2 R. Xasanov . Maktab tasviriy san`atni o`qitish metodikasi. T. 2005 yil.
- 3 R. Xasanov. S. Beysenov. O`qqituvchilarni tasviriy san`atdan bilim va malakalarini o`zlashtirishni nazorati. T. 2008 yil
- 4 B. Oriпов. Tasviriy san`at ta`limida didaktika. N. 2008 yil



ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИСИГА БЎЛГАН ЗАМОНАВИЙ ТАЛАБЛАР

Расим Хайров Золимхон ўғли

Гулистон давлат университети "Тасвирий санъат ва муҳандислик
графикаси" кафедраси ўқитувчиси. Телефон: +998994754475.

hayrov@mail.ru

Ражабова Зарина Обиджон қизи

Сирдарё вилояти Ховос тумани ХТБ га қарашли 14-умумий ўрта таълим
мактабининг тасвирий санъат фани ўқитувчиси. Телефон: +998998400896

zargina_zarginazar@mail.ru

Аннотация: Мақолада бугунги кун тасвирий санъат ўқитувчисининг замонавий ва касбий сифатларига бўлган замонавий талаблари таҳлил этилган ва илмий асосланган.

Калит сўзлар: Ўқитувчи, фазилат, касб, педагогик технология, ахборот коммуникатив технология, таълим, маҳорат, истеъдод, тасвирий санъат.

Ўқитувчи касби барча касблар орасида энг фахрлиси ва моҳияти жиҳатидан ниҳоятда жамият учун зарури ҳисобланади. Бу касб жамият ҳаёти, унинг барча жумбоқлари ҳақида ёшларга, уларни бутун ҳаёти давомида керак бўладиган билимларни беради. Ёш авлодни юксак ва олийжаноб фазилатлар билан қуроллантиради, кишилардаги нодонлик ва ёмон иллатлар билан курашишга ўргатади. Кишиларнинг ўтмишдаги тарихий тажрибаларини ёшларга ўтказди. Бу борада жамиятимиз учун воситачилик қилади. Натижада жамиятимиз тараққиёти учун замин яратилади [3;3-б.]. Ўқитувчилик касби ҳамма замонларда ҳам маъсулиятли ва шарафли касб эканлиги эътироф этиб келинган. "Таълим тўғрисидаги" қонуннинг 5-моддасида: "...юксак ахлоқий фазилатларга эга бўлган шахслар педагогик фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқига эга", - дейилади. [4; 15-б.]

Ўзбекистоннинг ҳозирги тараққиёт босқичида бу касб янада катта аҳамият касб этаяпти. Ўзбек халқи олдида турган муҳим вазифаларидан бири ўз-ўзини англаш, миллий истиқлол мафқураси асосида ўз Ватани ва халқига содиқ бўлган, янги баркамол авлодни шакллантиришдан иборат. Бу борада ўқитувчилик касбида истеъдод ва маҳорат катта роль ўйнайди. Яъни ўқитувчиликда ўз касбига меҳр, қизиқиш, уни эгаллашга интилиш бўлиши лозим. Шунинг ҳам қайд қилиш лозимки, ўқитувчи ишининг мураккаблиги шундаки, у ҳам таълим ҳам тарбия беради. Бу эса ўқитувчидан кўп вақт, масъулият ва ижодкорликни талаб этади. Ўқитувчи болаларнинг тасвирий санъатдан билим ва малакалари ҳақида тасаввурга эга бўлиш билан бирга, уларнинг соғлиги, психик хусусиятлари, қизиқишлари, одоби, уйдаги шарт-шароитлари, уларнинг ота-оналари ҳақида етарлича маълумотга эга бўлиши лозим. Шу билан бирга болаларнинг уйларига тез-тез бориб туриши, болалар ҳақида уларнинг ота-оналари билан мулоқотда бўлиб туриши педагогик фаолиятнинг самарадорлигини янада оширади [5; 86-б.].





Ўқитувчи болаларни мажбурлаб, зўрлаб, зулм ўтказиш йўли билан эмас, тушунтириш, ишонтириш, педагогик тактни сақлаган ҳолда хушмуомилалик билан иш олиб боргандагина, яхши натижага эриша олади.

Маҳоратга эга бўлишнинг бир қатор йўллари бор: ўз соҳаси бўйича тўхтовсиз ўқиш, ўрганиш, ўз билимини мунтазам бойитиб бориш; ахборот коммуникатив технология ва интернетдан фойдалана олиш; ўқитувчиларнинг илғор тажрибаларини ўрганиш ва таҳлил этиш; ўз дарсида илғор педагогик технологиялар юзасидан тажриба-синов ишларини олиб бориш; ўз ишига сидқи-дилдан ёндашиш, завқ-шавқ билан меҳнат қилиш, тушкунликка тушмаслик.

Ўқитувчилик маҳорати ҳар бир боланинг кўнглига, дилига йўл топа-билишлик, у билан тил топа билишлик, бир-бирларини тушуна- билишликлариди ҳам ифодаланadi. Шунинг учун ўқитувчи буни доимо ўз эътибориди сақлаши лозим. Ҳар бир ўқитувчи маҳорати, аввало ўз соҳасини яхши билишига боғлиқ. Бунда қуйидагилар назарда тутилади:

-тасвирий, амалий ва меъморчилик санъатларининг тарихи ва назариясини билиш; ўзбек санъатининг миллий, бадиий анъаналари юзасидан чуқур билимларга эга бўлиш; тасвирий малака ва кўникмаларга эга бўлиш ҳамда уни мунтазам такомиллаштириб бориш; тасвирий санъатнинг педагогик-психологик асослари ҳақида маълумотларга эга бўлиш; тасвирий санъатни ўқитиш методикасига доир илғор замонавий технологияларни чуқур эгаллаган бўлиш; тасвирий, амалий ва меъморчилик санъатларининг у ёки бу тури ёки жанрлари бўйича ижодий ишлар билан шуғулланиш; ўқувчиларнинг тасвирий фаолиятига доир тўхтовсиз тажриба-синов, илмий-методик ишлар билан шуғулланиш; тасвирий санъатни ўқитиш методикасига доир илғор тажрибаларни мунтазам ўрганиб бориш; тасвирий санъатни ўқитиш методикаси, санъатшуносликка доир адабиётларни ва тадқиқот натижаларини мунтазам ўрганиб бориш; мактабда ўқитиладиган барча фанлардан (айниқса, адабиёт, тарих, математика, биология, чизмачилик, меҳнат в.б.) таълим мазмуни билан танишган бўлишлик [3;139-б.].

Юқорида қайд қилинган фикрлардан ўқитувчилик касбини мураккаб, оғир, мушкул касб экан, деган хулоса чиқармаслик ва тушкунликка тушмаслик лозим. Ўз ишига масъулият билан қараган ҳар бир ўқитувчи моҳир муаллим бўлиб етишиши муқаррардир. Шунингдек, ўқитувчилик касби қанчалик машаққатли бўлмасин, унинг шарафли касб эканлигини унутмаслик лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги қонуни // Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Т.: Шарқ, 1997. - 180 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси -Т.: Lex.uz. 2019.
3. Ҳасанов Р. Мактабда тасвирий санъатни ўқитиш методикаси. -Т.: Фан. 2004.- 250 б.
4. Ҳасанов Р., Хайров Р. Ўқувчи қобилияти, ташхис ва табақалаштирилган таълим. // Мактаб ва ҳаёт.- 2010. -№7-8 (75-76) -Т.-2-5



TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

**Namangan viloyati, Namangan tuman,
1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
Xalq ta'limi a'lochisi 1-toifali Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Inamov Akramjon Abdulazizovich
Tel: +998905532190**

Annotatsiya: O'quvchilarga tabiatdagi go'zallik, rang jilolalarini o'rni, mehr-muhabbat, odamiylik tuyg'ularini shakllantirish. Rasm chizishda insonning tuyg'ularini, kechinmalarini aks ettira olish, do'stga Ona vatanga sadoqat tuyg'ularini anglatishdan iborat.

Kalit soz'lar: miniatyura, kompozitsiya, pozitsiya, didaktika, interfaol.

Tasviriy san'at amaliy fanlar qatoriga kirib, uni o'qitish o'quvchidan ko'rgazmali metodlardan samarali foydalanish talab etadi. Shundan kelib chiqqan holda og'zaki bayon etish, savol-javob va amaliy ishlarni tashkil etish hamda ko'zgzamalilik metodlari bu boradagi asosiy usullardan deyish mumkin.

Fan o'qituvchisi dars mashg'ulotlarini bir qolipgasolib, zerikarli holda o'tkazmaslik uchun intefaol usullardan foydalanishi, o'quvchilarga faqatgina belgilangan mavzular bo'yicha tasviriy san'atdan mazmunli saboq berishi va bu orqali o'quvchilarni tasviriy san'atga qiziqtirishi, ularda go'zallik va nafosat, ijodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Masalan, xoh dars mashg'ulotlarida, xoh to'garak ishlarida bo'lsin, intefaol usullarini samarali qo'llashning imkoniyati bor.

"Klaster" metodi.

1. O'qituvchi o'quvchilarni yangi mavzu bilan tanishtiradi. Doskaga "miniatyura" so'zini yozadi.

2. O'quvchilar nimaniki o'ylagan bo'lsalar, shuni qog'ozga yozadilar.

3. Yozuvning imlosi yoki boshqa jihatlariga e'tibor berilmaydi.

4. Berilgan vaqt nihoyasiga yetmaguncha o'quvchilar yozish yoki chizishdan to'xtamaydilar. Shu o'rinda o'quvchiga tavsiya: agar ma'lum muddat biron bir g'oya o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biron narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi go'ya tug'ilgunga qadar davom ettiring.

5. Muayyan tushuncha doirasida imkoniyat qadar ko'proq yangi g'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamaslik tavsiya qilinadi.

Texnologiya nihoyasiga yetgach, o'qituvchi boshchiligida fikrlar va tasvirlar tahlil qilinadi.

Kutiladigan natija:

- o'quvchilar o'yinli texnologiyalarning mazmun-mohiyati, vzaifalari, turlari bilan tanishadilar;

- yangi mavzu haqidagi mavjud bilim ba ko'nikmalarini mustahkamlaydilar;

- sharq miniatyurasiga oid rasmlar chizishga kirishish oldidan badiiy-ijodiy tayyorgarlikka ega bo'ladilar va h.k.

Tasviriy san'at darslarida yuqoqi natijalarga erishishda o'quvchilarni rag'batlantirish, ruhlantirish pozitsiyasi hal qiluvchi omillardan sanaladi. Buning uchun maktab doirasida:

- yosh rassomlar tanlovini o'tkazish;

- iqtidorli yosh rassomlar ijodiy ishlariga bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilish;

- mashhur rassomlar bilan ijodiy uchrashuvlarni yo'lga qo'yish va mahorat darslarini o'tkazish;

- bolalar uchun mo'ljallangan oylik bezakli jurnallarida yosh rassomlarning sara ishlarini chop ettirish va h.k kabi tadbirlarini amalga oshirish natijasida o'quvchilarda go'zallik,



nafosat, ijodkorlik xislatlari kamol toptirib boriladi.

Xulosa qilish kerakki, tasviriy san'at fani bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarni ham sifat, ham mazmun jihatidan to'laqonli tashkil qilishda, ko'zlangan pedagogik maqsadga erishishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hal qiluvchi o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI laboratoriya mudiri A.P.Sulaymonov. "Amaliy fanlarni o'qitish va o'quv - tarbiya jarayonining sifat va samaradorligi: muammaolar va yechimlar" Toshkent - 2017 y.

3. Ziyonet.uz.

TADQIQOT.UZ
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 16-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ

(14-қисм)

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.05.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000